

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

MAMIRQULOVA GULASAL ASHUROVNA

ABDINAZAR BAXSHINING HAYOTI VA IJODI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f. n., dots. Tilavov A.

Toshkent - 2014

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I bob. Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining Surxondaryo dostonchiligida tutgan o‘rni.....	10
II bob. Abdinazar baxshi ijodiy faoliyati	22
III bob. Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li termalarining ilmiy tadqiqi	42
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy jamiyatning salohiyat darajasi yosh avlodni zamon ruhida komil inson qilib tarbiyalash jarayoniga bog'liq. Yosh avlodning tarbiyasida esa asrlar davomida yaratilgan qadriyat – lar, xususan, xalq og'zaki ijodi asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sobiq Sovet tuzumi O'zbekistonda 70 yil davomida manqurtlik siyosatini olib bordi, Navro'z bayrami, “ Alpomish ” dostoni oyoq osti qilindi. Ammo o'zbek xalqi o'zining qadriyatlariga, og'zaki ijodiga sodiq xalq ekanini yodidan chiqarmadi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng saqlab qolingan xalq hududlariga, bayramlariga, og'zaki ijodiga bo'lgan munosabat keskin ijobiy tomonga o'zgardi. Mustaqillikka erishmasdan oldin Islom Abdug'aniyevich Karimov tashabbusi bilan Navro'z umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. 1998 – yilda “ Alpomish ” dostoni “ Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan 1928 – yilda Mahmud Zaripov tomonidan Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosida yozib olgan matn asosida to'liq nashr ettirildi. 1999 – yilda davlatimiz “ Alpomish ” dostonining 1000 yillik to'yini YUNESCO ishtirokida bayram qildi.

Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2008 - yilda “ Ma'naviyat ” nashriyotida chop etilgan “ Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch ” kitobida ko'p asrlik xalqimiz og'zaki ijodiga yuqori baho berilib: “ Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming – minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy

boyligimizdir . Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan – kam topiladi ”¹, deyiladi .

E'tiborli jihat shundaki , yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov butun faoliyati davomida badiiy adabiyotning qadriyatni xalqimizga tushuntirish siyosatini olib bormoqda . 2009 –yil 24 – iyun kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga yo'llagan “ Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga , kelajakka e'tibor ” suhbatida : “ Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi ”², - deydi.

Shubhasiz yuqoridagi iqtibosda adabiyot haqida aytilgan muhim fikrning ijtimoiy mohiyati bevosita xalq og'zaki ijodidagi noyob namunalariga ham taalluqlidir .

Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki , davlatni boshqarayotgan shaxsning e'tiborini tortgan har bir soha davlat maqomiga ega bo'ladi . Prezidentimizning xalq og'zaki ijodi “ Alpomish ” dostoni haqida bildirgan iliq fikrlari bugungi kunda biz – talabalar tomonidan xalq qadriyatlarining davlat maqomida ekanligini tushunishimizda asos bo'lmog'i lozim . Fikrimizni dalillash uchun yana bir misol keltiramiz . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2010 – yil 7 – noyabrda “ 2010 – 2020 – yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish , asrash , targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida ” 222 – son bilan qaror qabul qilindi . Mazkur qaror 57 moddadan iborat bo'lib , ulardan ko'pchiligi bevosita xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish , o'rganish , nashr qilishga qaratilgan . Jumladan , qarorning 7 – moddasida O'zbekistonning qadimiy folklori va an'anaviy ijrochiligi saqlanib qolgan viloyatlarga (Surxondaryo , Qashqadaryo va boshqa hududlarga) ekspeditsiyalar uyushtirish belgilandi . 10 – moddada o'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklarining yuz tomligini matni , notasi va

¹Karimov Islom Abdug'aniyevich .Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “ Ma'naviyat ”, 2008. –B 30-31.

²O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi . 2009 –yil 3 – iyul.

izohlari bilan nashrga tayyorlash nazarda tutilgan . 11 – modadada “Go‘ro‘g‘li” , “Alpomish” singari dostonlarni ilmiy tadqiq etish ishlarini yanada kuchaytirish nazarda tutiladi .

Yuqorida qayd etilgan Davlat miqyosidagi hujjatlarga asoslangan holda biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini Surxondaryo dostonchiligi rivojiga munosib hissasini qo‘shgan va qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston xalq baxshisi Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining hayoti va baxshichilik ijodini tadqiq qilishga bag‘ishladik .

Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li o‘z ijodida 40 ta xalq dostonlarini o‘z variantlari nusxasida ijro etgan . O‘zbekiston , Qozog‘iston va Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tgan bir qator xalq baxshilari tanlovlarida faxrli o‘rinlarni egallagan . Uning ijodida 200 ga yaqin termalari bor . Shundan ikkita zamonaviy dostonini (“Tursun mergan va Ramazon chobag‘on” , “Davrqul polvon”) , 50 ga yaqin termalarini va 15 dan ziyod do‘mbira kuylarini o‘zi ijod qilgan . “Tursun mergan va Ramazon chobag‘on” nomli zamonaviy dostoni 2000 – yilda “Mehnat” nashriyoti tomonidan chop etilgan . “Davrqul polvon” nomli dostoni esa 2003 – yili “Adolat” nashriyoti tomonidan chop etilgan .

Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li o‘zbek baxshichilik san‘atini Turkiya , Fransiya , Shvetsariya , Belgiya kabi bir qator mamlakatlarda namoyish qilishga ulgurdi .

Ma‘lumki , Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li kabi baxshilarimiz kamchilikni tashkil etadi . U kishining hayot va ijod yo‘li o‘tmish va kelajak uchun muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi . Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li ijodi , kuylagan dostonlari juda ko‘p qiziqishlarga sabab bo‘ldi . Folklorshunos olimlarimiz baxshi faoliyatini kuzatib , gazeta va jurnallar orqali o‘z fikr – mulohazalarini bildirib kelmoqda . Respublika , viloyat televideniyesi orqali ham baxshi ijodiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar efirga uzatilgan . Shunga qaramasdan , Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li faoliyati

folklorshunoslikda ilmiy jihatdan mukammal o'rganilmagan . Baxshining ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishish , ijrochilik mahorati qirralarini kashf qilish , repertuari ko'lamini aniqlash va u kishi kuylagan dostonlarning boshqa dostonlardan farqli jihatlarini ochib berish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi .

Mavzuning o'rganilganlik darajasi . Istiqlol o'zbek folklorshunosligining jahoniy miqyosga intilishida keng yo'l ochib berdi . Milliy hurlik baxsh etgan ijod erkinligi tufayli xalq og'zaki ijodi namunalarini uzoq ajdodlarimizning tarixi , turmush tarzi , ibtidoiy , diniy va e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq holda o'rganish imkoniyatlari tug'ildi . Xalq ijodiyoti namunalarini to'plash maqsadida respublikamizning barcha viloyatlari va qardosh respublikalardagi o'zbeklar istiqomat qiluvchi hududlarga ekspeditsiyalar uyushtirib , folkloriy jarayonlar faol kuzatildi , folklorga oid xilma – xil janr namunalari yozib olindi . Ayniqsa , Surxondaryo – Qashqadaryo vohasidagi jonli folkloriy jarayon qator xalq ijodkorlarini kashf etish va talay xalq dostonlarini yozib olish imkonini berdi .

1999 – yilda filologiya fanlari doktori Malik Murodov va filologiya fanlari nomzodi Abduolim Ergashevning Surxondaryo viloyatiga uyushtirgan “ Alpomish ” – o'zbek xalq qahramonlik eposi “ deb nomlangan ekspeditsiyasida Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ijodi ham o'rganib chiqildi .

1998 – yilda filologiya fanlari doktori Malik Murodov va filologiya fanlari nomzodi Abduolim Ergashevlar tomonidan chop etilgan “ Alpomishnoma ” kitobiga baxshining “ Alpomish ” , “ Tursun mergan va Ramazon chobag'on ” dostonlaridan parchalar va termalaridan namunalar kiritilgan . Yurtimizda xalq qadriyatlarini targ'ib qilish ishiga munosib hissa qo'shayotgan jutnalist Normurod Norqobilov Abdinazar baxshi

ijodiga bag'ishlab 2005 – yilda “ Jo'shqin daryo ” nomli badiasini bosmadan chiqardi .

San'atshunoslik fanlari doktori , professor Rustambek Abdullayevning YUNESCO tashkiloti tomonidan chop ettirilgan “ Boysun tradetsional musiqa madaniyati ” nomli kitobiga baxshi ijodi haqidagi ma'lumotlar kiritilgan .

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li bilan bir necha marotaba ijodiy suhbat o'tkazish imkoni bo'ldi . Natijada , “ Alpomish ” , “ Davrqul ” , “ Oysuluv ” dostonlarini , foto suratlarini , ijod namunalari yozilgan diskni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik . 2012 – 2013 – yillari aprel oyida universitet talabalari ilmiy konferensiyasida ma'ruzalar qilindi .

Ishning maqsadi . Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining bugungi kun o'zbek dostonchiligiga qo'shgan munosib hissasini ilmiy nuqtayi nazardan baholash , baxshi ijro usulidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadini belgilaydi .

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari . Ilmiy ishda asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi :

- Abdinazar baxshi Poyon o'g'li hayotiga oid asosiy ma'lumotlarni o'rganish ;
- Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ijodiga oid manbalar bilan tanishish ;
- Abdinazar baxshining obraz yaratishdagi o'ziga xosligini aniqlash ;
- Abdinazar baxshining ijro mahoratini tahlil qilish;
- Abdinazar baxshining repertuaridagi “ Alpomish ” dostonini Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li kuylagan “ Alpomish ” dostoni bilan qiyosiy o'rganish ;
- Abdinazar baxshi Poyon o'g'li repertuaridagi termalarning mavzu ko'lamini aniqlash ;

- Abdinazar baxshi Poyon o'g'li repertuaridagi termalarida badiiy san'atlarni aniqlash .

Bitiruv malakaviy ishning metodi . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik , ma'naviy qadriyatlar tizimi haqidagi qarashlari ilmiy ishning metodologik asosini tashkil etadi . Ilmiy ishda folklorshunoslik nazariy xulosalariga tayanib , “ Alpomish ” dostoni tarixiy – qiyosiy metod asosida tadqiq etiladi .

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar .

- 1 . Boysun xalq og'zaki ijodi va unda Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining tutgan o'rni .
- 2 . Abdinazar baxshining hayoti va ijodidagi umumiy ma'lumotlar .
- 3 . Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining ijro etgan dostonlarida baxshi mahorati .
- 4 . Qahramon ichki ruhiy holatini ifodalashga e'tiborning qaratilishi .
- 5 . Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining ijro etgan termalari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi .

Ishning tarkibi . Bitiruv malakaviy ishimiz kirish , uch bob , xulosa , foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib , umumiy hajmi 60 sahifa, 12 819 ta so'zdan iborat.

I bobda Surxondaryo xalq og'zaki ijodi va unda Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining tutgan o'rni , Abdinazar baxshi hayoti va ijodiga doir umumiy ma'lumotlar , ijodining ilmiy o'rganilishi ko'rib chiqildi .

II bobda Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ijro etgan dostonlarda baxshi mahorati , obraz yaratish usullari , qahramon ichki ruhiy holatini ifodalashga e'tiborning qaratilishi kabi muammolar hal etishga harakat qilindi .

III bobda Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining termalari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi . Unda termalarning tematik ko'lami va tahlili , ularda qo'llangan badiiy san'atlar , badiiy mahorat kabi masalalar ko'rib chiqildi .

I bob

Abdinazar baxshining Surxondaryo dostonchiligida tutgan o‘rni

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining katta bir qismini dostonlar tashkil etadi . Dostonchilik respublikamizning ba’zi joylaridagi kabi Surxon vohasida ham qadimiy bo‘lib , u necha asrlardan buyon yaratuvchi va bunyodkor xalqimizning ideal orzu – umidlari , kurash va intilishlari , urf – odatlari , rasm – rusumlari , axloqiy – ruhiy va milliy qadriyatlarimizning ifodasi sifatida yashab kelmoqda . Demak , “ ... xalq o‘z ajdodlari qoldirgan merosdan foydalanib , jahoniy miqyosda uning qadriga yetayotgan ekan , bunday xalqni hech qanday kuch yenga olmaydi . Bunday xalq ulkan ishlar qilishga , buyuk kelajak yaratishga qodirdir . ” ³ Surxondaryo folklorini keyingi yetmish – saksoninchi yillarda o‘rganish , yozib olish , xilma – xil dostonlarning versiyalari va variantlarini taqqoslash , ilmiy tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki , an’anaviy dostonchilikning yashash tarzi , avloddan – avlodga o‘tib , bizgacha asrab – avaylab yetkazib kelinishi , asosan , dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan turkiy qavmlar orasida yuzaga kelgan hamda jonli ijroda sifat o‘zgarishlariga uchragan holda hozirgacha yashab turibdi .

Surxondaryo xalqi badiiy ijodiyotining qadimiy , boy an‘analari ham ko‘plab avlodlar va ijodkorlar ishtirokida shakllangan , rivoj topgan , o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega bo‘lgan . Baxshichilik san‘ati - xalq dostonchiligi ham xuddi shunday yuzaga kelib kamol topgan .

Surxondaryo folklori haqida so‘z yuritar ekanmiz , bu voha baxshichiligi Qashqadaryo baxshichiligi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaymiz . Shu bois Surxondaryo baxshichiligini Qashqadaryo baxshichiligidan ayro tarzda o‘rgana olmaymiz .

³Mirzayev To‘ra .“ Alpomish ” dostoni , uning versiya va variantlari// Alpomish o‘zbek xalq qahramonlik eposi. –T.: 1999. –B . 4.


O'tgan asrning 20 – yillaridan boshlab yurtimiz aholisi og'zaki ijodini o'rganish , to'plash , nashr etish , tadqiqotlar o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa – da , Qashqadaryo , Surxondaryo folklorini , xususan, dostonchiligini o'rganishga nisbatan kech kirishildi . Janubiy O'zbekiston baxshilari dostonchiligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni rus tadqiqotchisi Y. F. Kol 1890 – yildayoq o'z kundaliklarida yozib qoldirgan edi . U Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'ida oyinli urug'idan bo'lgan Omonnazar uch soat davomida to'xtovsiz doston kuylaganini qayd qiladi . E.F. Kol kundaligini tekshirgan Hodi Zarif Omonnazar kuylagan doston “Alpomish ” dostoni ekanligini aniqlaydi.

Qashqadaryo va Surxondaryo xalq og'zaki ijodini o'rganishga kirishish 1929 - yilda ikki voqea dostonchiligini ilk bor tadqiq etishga kirishgan folklorshunos Hodi Zarif hisoblanadi . Umumo'zbek dostonchiligida alohida o'rin egallagan Surxondaryo dostonchiligi haqida , xususan , Sherobod dostonchiligi maktabi to'g'risida navbatdagi ma'lumotni bergan olim Mansur Afzalov bo'ldi . 1929 yilgi ekspeditsiyadan o'n olti yil o'tgach , 1945 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining bir guruh ilmiy xodimlari Qashqadaryo - Surxondaryo vohalarida folklor ekspeditsiyasida bo'lib , ko'pgina xalq baxshilari bilan uchrashdi , ayrim dostonchilarni aniqladi va dostonlardan parchalarni yozib oldi . Butun Janubiy O'zbekiston folklorini , xususan , dostonchiligini kompleks tarzda to'plash va o'rganish , jonli jarayonda izchil kuzatish 1953 – yildan boshlangan .

Surxondaryo dostonchiligining izchil ravishda o'rganilishi, navbatdagi izlanishlar monografik tadqiqotlar vohada uchta dostonchilik borligini ko'rsatadi . Bular Sherobod , Beshqo'ton , Kofrun (Boysun) baxshichilik markazlaridir . Hozirgi kunda dostonchilik jonli jarayonda faqat Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida yashayotgan ekan , buning asosini Sherobod dostonchilik maktabida ustoz – shogirdchilik an'anasining saqlangani bu

poetik maktab vakillarining ijro usullari xalqqa yaqinligi , tushunarligi , soz va soʻzda molikligini saqlay olishi tashkil etadi .

**Rustambek Abdullayevning “boysun baxshilari maktabi ” kitobida sherobod
baxshichilik maktabi aʼzolari nomlari keltirilgan**



Surxondaryo viloyati baxshilarining o'ziga xos jihati shundaki, ularning repertuarida mamlakatimizning boshqa dostonchilik maktablarida uchramaydigan, umumo'zbek va umumturkiy eposni boyituvchi qator dostonlar va alohida turkumlar mavjud. Jumladan, "Alpomish" turkumini to'ldiruvchi "Beva Barchin", baxshi e'tiqodini aks ettiruvchi "Ollonazar Olchinbek", "Go'ro'g'li" silsilaviy dostonlarini mukammallashtiruvchi "G'aribnoma", "Shahidnoma", "Qasamyod", "Amirqul", "Nurali va Semurg'", "Sheralining bandi bo'lishi", "Soqibulbul", "Suluvxon", "Suv parisi" dostonlari Surxondaryo – Qashqadaryo baxshilarigagina xosdir.

Surxondaryo dostonchiligi bugungi kunda ham davom etayotganligining sabablaridan biri ustoz baxshilarning shogird tayyorlashga bo'lgan e'tibori so'nmaganidadir. Ustoz dastlab shogirdning qobiliyatiga, xotirasiga, eshitgan kuy va matnlarni yodda saqlab qolish kuchiga diqqat qiladi. Shogird esa baxshining el orasidagi nufuzi, bilimdonligi, sozandaligi, so'zga chechanligi, matnlarni qiziqarli ijro eta olishiga ko'ra ustoz axtaradi. Bu an'ana bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Shu bois Surxon vohasi dostonchiligining barhayot ekanligini ko'rish mumkin.

Sherobod baxshichilik maktabi vakillaridan biri Qiziriqlik Abdinazar baxshi Poyon o'g'li hisoblanadi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li 1954-yil 20-mayda Surxondaryo viloyati Boysun tumani Xomkon qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Eshqurbonov Poyon 1930-yilda tug'ilgan. Boysun tumani Xomkon qishlog'ida yashab, ushbu tumanning o'rmon xo'jaligida ishchi va xizmatchi bo'lib ishlagan. 2000-yilda vafot etgan. Onasi Norqobilova Ashrab 1934-yilda tug'ilgan. Hozirgi paytda nafaqada. Xomkon qishlog'ida yashaydi. Abdinazar baxshi

Poyon o'g'lining umr yo'ldoshi Poyonova Oysha 1955-yilda Sherobod tumanida tug'ilgan. Uy bekasi. To'rtta farzandi bor: uch qiz va bir o'g'il.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li yetti yoshigacha ota-ona narbiyasida bo'lib, so'ngra 48-sonli Xomkon qishlog'idagi martabga o'qishga boradi. 1968-yili 8-sinfni tugatib, Chilonzor qishlog'idagi 45-sonli o'rta maktabga kelib o'qiydi. 1970-yili mazkur o'rta maktabning 10-sinfini tamomlaydi. 1970-1975-yili Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashtirish muhandislari oliygohida o'qib, muhandis - mexanik kasbini egallaydi.

1976-yili yanvar oyida Surxondaryo viloyat Lenin yo'li tumani selxoz-texnika tashkilotiga ishga kiradi va turli vazifalarda ishlaydi. Texnik-mexanik, muhandis-agronom, bo'lim boshlig'i, boshqaruv raisi o'rinbosari vazifalarida ishlaydi. 1982 – 1983-yillarda Hakim Eshonov nomli xo'jalikda bosh muhandis, 1983 - 1986-yillarda tuman qishloq xo'jaligida bo'lim boshlig'i, 1986 – 1998 - yillarda tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasida texnika nazorati inspeksiyasi bo'limi boshlig'i vazifalarida ishlaydi. 1997-2008-yillarda Qiziriq tumani "Yoshlik" jamoa korxonasida muhandis vazifasida ishlaydi. 2007-yildan Qiziriq tumani Madaniyat bo'limi Mehnatobod qishloq klubi rahbari vazifasida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li baxshichilik faoliyatini 1984-yillardan boshlagan. Dastlab Xo'shboq baxshi Mardonaqulovdan, so'ngra Chorshanbi baxshi Rahmatullayevdan baxshichilik sirlarini o'rgangan.

1985-yilda birinchi marta Xorazm viloyati Shovot tumanida bo'lib o'tgan baxshi-shoirlar respublika ko'rik - tanlovida ishtirok etgan. Shundan buyon respublika va xalqaro ko'rik –tanlovlar va festivallarda doimiy qatnashib, katta yutuqlarga erishib kelmoqda.

1987-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan respublika baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovida O'zbekiston FA adabiyot institutining sovrinini qo'lga kiritgan. 1989-yilda O'zbekiston tekevideniyesi va radioeshittirish komitetining faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan.

1999-2001-2003-yillarda Surxondaryo viloyati baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovlarida faxrli o'rinlarni olgan. 1999-2003-yilgi Markaziy Osiyo respublikalari baxshi-shoirlari va oqinlarining I , III xalqaro ko'rik-tanlovlarida faxrli ikkinchi o'rinlarni , 2001-yildagi tanlovda esa faxrli birinchi o'rinni olishga sazovor bo'lgan.

1994-yildagi Qirg'izistonning Bishkek shahrida bo'lib o'tgan "Manas " eposining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro oqinlar ko'rik - tanlovida ikkinchi o'rinni olishga muyassar bo'lgan. 2002-yilda Qirg'izistonda bo'lib o'tgan xalqaro "Ak - tanday" oqinlar festivalida ishtirok etgan . Xalqaro " Boysun bahori " festivallarida muntazam qatnashib kelgan. 2000-yil iyun oyida Turkiyaning Anqara shahrida bo'lib o'tgan "Turk dunyosi oqinlari" ning xalqaro anjumanida ishtirok etib , g'oliblik diplomi va medalini olib kelgan.

2000-yil may oyida Fransiya , Shvetsariya , Belgiya mamlakatlarida bo'lib , O'zbekistondagi baxshichilik san'atini namoyon etgan ko'plab konsertlarda ishtirok etgan. 2009-yil Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan "Astana – Arqau" turk musiqasi festivalida g'oliblik diplomi bilan va Turkiyaning "Turksoy " tashkiloti sovrini bilan taqdirlangan . Bulardan tashqari xalq bayramlarida , tuman , viloyat , respublika miqyosida bo'lib o'tgan anjumanlarda baxshichilik san'ati bilan qatnashib, hurmatga sazovor bo'lib kelmoqda. Tuman , viloyat , respublika gazeta va jurnallari sahifalarida doimiy chiqishlar qilib turadi va ijodi haqida har doim yoritib kelinmoqda.

Viloyat , respublika radioeshittirish va televideniylarida 1984-yildan beri muntazam chiqishlar qilib kelmoqda. 1993-yilda " Marhabo talantlar" respublika televizion ko'rik-bellashuvida ishtirok etgan. Respublika televideniyesi "Xalq og'zaki ijodi" , " Siz sevgan dostonlar" , "Ostonasi tillodan" , "Oltin beshik" , "Ikki daryo oralig'ida" ko'rsatuvlarida , Yoshlar tekekanali va boshqa ko'plab ko'rsatuvlarda muntazam chiqib turadi .

O'zbekiston radiosiga 6 ta dostoni: "Oltin qoboq", "Sanam-Gavhar", "Turkiston", "Malla savdogar", "Ravshanxon", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" nomli dostonlari yozib olingan va bir necha bor namoyish etilgan. 2009-yilda Koreya televideniyesi Abdinazar baxshining faoliyati va ijodi haqida ko'rsatuvlar olib, Koreya va O'zbekiston televideniyalarida namoyish etildi. Abdinazar baxshi bir necha ko'rik-tanovlarda hakamlar hay'ati etib saylangan.

"Alpomish" dostonining Surxandaryo varianti Abdinazar baxshi Poyon o'g'lidan 1998-yilda yozib olingan. Professor, filologiya fanlari doktori Malik Murodov va filologiya fanlari kandidati Abduolim Ergashevlar yozib olib, nashrga tayyorlashgan. Ayni paytda chop etish arafasida turibdi. Bundan tashqari "Oltin qaboq", "Ollonazar – Olchinbek", "Xonoyim pari", "Avazxonning tug'ilishi" nomli an'anaviy dostonlari yozib olinib, nashrga tayyor turibdi.

2013-yilda 1-6-may kunlari Navoiyda bo'lib o'tgan ko'rik - tanlovda ham ishtirok etgan. 2013-yilda oktabr oyida baxshi Hindistonda ham bo'lib qaytdi.

"O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro etiladi".⁴

"Ollonazar – Olchinbek" dostoni romantik doston bo'lib, faqat Surxondaryoda mavjud. Bu dostonni faqat Xo'shboq Mardonaqulov va Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ijro eta oladilar. Bu holatni Abduolim Ergashev shunday izohlaydi: "Xalqning qadimiy dostonchilik san'atiga bag'ishlangan "Ollonazar Olchinbek" dostonining ko'p ijro etilmasligi, parchalar kuylangani holda to'liq aytilmasligi, bizningcha, voqealarning epik tarzda shodu – xurramlik va to'y – tomosha bilan yakunlanmasligidadir. Asar qahramoni diyonat, halollik, poklik yo'lida

⁴Madayev Omonulla. "Alpomish" bilan suhbat. – Toshkent, Ma'naviyat, 1999. –B. 7.

halok bo‘ladi . Xalq baxshilari esa epik qahramonning o‘lishi haqida kuylamaydilar . Jumladan , “ G‘oyibnoma ” va “ Shahidnoma ” asarlarini davralarda aytmaydi , irim qiladi . Bunday asarlarni baxshi ma‘lum yoshga borganda aytishi mumkin degan qarash bor . Masalan , Qodir baxshi: “ G‘oyibnoma ” va “ Shahidnoma ” ikki doston. Men ularni payg‘ambar yoshi (63) dan so‘ng shunday aytayinki , o‘shanda ko‘rasiz . Hozir esa mumkinmas , - derdi .”⁵

Taniqli jurnalist Normurod Norqobilov Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘liga atab yozgan “Jo‘shqin daryo” badiasida Abdinazar Poyon o‘g‘li yigirma yetti yoshigacha qo‘liga do‘mbira tutmagan , terma yoki doston aytib ko‘rmaganligini aytib o‘tadi . Lekin Abdinazar Poyonov bolaligidan baxshilarni tinglab ulg‘ayganligi uchun baxshilarning sozi va ovozi yaxshigina baholay olardi . Gohida maslahatlarini ham ayamardi . Ammo baxshi bo‘lishni xayoliga ham keltirmasdi.

“ Oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan, musiqiy ta‘limdan bexabar bir kishining minglab satrlarni yod bilishi , do‘mbira jo‘rligida uni yuksak maqomlarda kuylashi rostdan – da hayratlanarli edi. Boz ustiga, baxshi bir dostonni yana takror ijro etganda oldingisiga aynan o‘xshamasdi ” .

⁶Abdinazar Poyonovni ham shu o‘ylar o‘ylantirardi. Ammo baxshilik uning qonida bo‘lganligi uchun hamda Xudo yuqtirgani uchun ham u ustozlari kabi baxshichilik kasbini egalladi . “Ota tomonidan bir zamonlarda Abray baxshi degan kishi bo‘lgan . “Abray cho‘t” deb atashgan . O‘ttiz-qirqqa yaqin doston bilgan . Do‘mbira chertganda odamni sel qilgan . Ena tomonidan doston bilgich bobolari o‘tgan . Ular baxshi bo‘lishmagan , ammo dostonlarni baxshilardan kam bilishmagan . Enasining otasi rahmatli Norqobil bobo “Hu-ye” alla qo‘shiqlarini juda yaxshi aytardi . Yana Norqobil bobo ta‘rifga usta

⁵Ergashev Abdulolim .Qashqadaryo – Surxondaryo dostonchiligi . - T.: “ Fan ” , 2008 . – B .119 .

⁶Eshonqulov J .Sharqqa yuzlanish // Tafakkur , 2010. 1 – son. – B . 104.

bo'lgan . Tikkaygan daraxtni bir soat ta'riflashi mumkin edi ” ⁷, - deyiladi Normurod Norqobilovning “Jo'shqin daryo” badiasida . Agar baxshilikni Alloh yuqtirmasa , o'n yoshidan shu yumushga kirishsa ham baxshi bo'lolmaydi . Agar Alloh baxshilikni yuqtirsa, nafaqat yigirma yetti yoshida , balki ellik-oltmish yoshida ham qo'liga do'mbira olgan baxshilar bo'lib yetishadilar . Shunday qilib , Abdinazar baxshi Poyon o'g'li yigirma yetti yoshida baxshi bo'ldi . Uning dastlabki ustozlari Qiziriqlik baxshi Xo'shboq Mardonaqulovdir. Baxshining dostonlariga ilk kuylarini xalq orasida “Baxshilarning bastakori” degan nom olgan Sayqal chavandoz yaratib bergan . Sayqal chavandozga Alloh faqat kuy bastalash uchun do'mbirani yuqtirgan , lekin baxshilarnikidek ovoz bermagan edi . Abdinazar baxshida esa ham ovoz , ham kuy bastalash qobiliyati mavjud edi . Biroz vaqt o'tib , dostonlariga o'zi kuy bastalaydigan bo'ldi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ilk ustozlari Xo'shboq baxshining tarbiyasini oldi . Abdinazar baxshi o'zi ustoz bo'lishiga qaramasdan , Chorshanbi baxshi Rahmatullayevning ham shogirdi hisoblanadi . Chunki Chorshanbi baxshi ham dostonlarning koni hisoblanadi . Surxonda u kishiga teng keladigan baxshi topilmaydi . Biladigan dostonlari yetmishdan oshadi , termalari esa juda ma'noli. Do'mbirani ham juda chiroyli chertadi . Bu ikki ustozidan baxshilik sirlarini o'rganganidan so'ng Qashqadaryolik Qodir baxshi Rahimovning oldiga boradi va u kishidan maslahatlar olib qaytadi . Jurnalist Normurod Norqobilov ta'kidlaganidek , bu uch baxshi bamisoli uch azim daryo edilar. Abdinazar baxshi Poyon o'g'li bu uch azim daryodan bahra olgan jo'shqin daryo bo'lib yetishadi. Shundan so'ng Abdinazar baxshido'mbirani sayratadigan , dostonlarning uyini kuydiradigan baxshi bo'lib elga tanildi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li chollar aytgan voqealar asosida necha-necha dostonlarga yangitdan umr bag'ishladi.

⁷Norqobilov N. Jo'shqin daryo. - Toshkent, Fan, 2005. -B.5.

Abdinazar baxshi repertuarining boyligiyu rang - barangligi xalqdan qabul qilingan , shuningdek, o'zi ijod etgan asarlarning ma'no – mazmuni , badiiy qudratiyu , ularni qay darajada yuksak ijro etganidadir . Bu borada ham Abdinazar baxshi oldiga tushadigan , u bilan bellasha oladigan xalq san'atkorlari kamchilikni tashkil qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi . Darhaqiqat , har qanday kishini hayratga soladigan , yoqa ushlab o'zligini yo'qotadigan joyi shundaki, Abdinazar baxshi do'mbirasini qo'lga olib, o'zicha bir - ikki sherday o'qranib olgach, cherta boshladimi , bas , sizni sehrlab oladi. Vujudingizni ajabtovur his - tuyg'ular chulg'ab, hech kutilmagan holatlarga tushib qolasiz . Ha , Abdinazar baxshi do'mbira chertib qo'shiq aytsa , ko'z o'ngingizda shikorga ketayotgan yoki ovi baroridan kelgan quvnoq bahodirning sho'x (bu o'rinda do'mbira sho'xchan sas chiqaradi) , jangu jadal , ur – surda esa xalq qahramonini jasur (bu asnoda esa do'mbiraning jangari ovozi haddan ziyod baralla yangraydi) , poygada bo'lsa chavandozni yuguruk (bu paytda do'mbiraning shiddatkor kuyi avjiga chiqadi) , botir safarga chiqqanda otning dupir – dupiri (bu paytda do'mbiraning ovozi ot tuyoqlari ohangiga moslanadi) , botir boshiga musibat tushgan bo'lsa , uning suyukli yori alamzada (bu asnoda do'mbira mungli – mungli sadolar chiqaradi) holatda gavdalanadi .

Ana shunday paytlarda Abdinazar baxshi nafaqat mohir dostonchi, hozirjavob baxshi – shoir, balki iste'dodli bastakor , yetuk sozanda sifatida ham gavdalanadi . Baxshi repertuaridagi an'anaviy dostonlarning har birini ularga xos va mos kuy - nag'ma bilan ta'minlay oladi . Xalqimizning boy va betakror asriy musiqa merosidan , xususan , o'zbek dostonchiligining bitmas–tuganmas kuy–ohanglaridan ustamonlik bilan mohirona foydalanibgina qolmasdan , o'zi ham xilma – xil kuy va ohanglar yaratdi . Qisqasi , terma va dostonlarga jo'r bo'ladigan an'anaviy kuylardan tashqari o'ttizdan ortiq , ziyod ohang va kuy ijod etib , ularni do'mbirasida qoyilmaqom tarzda jaranglata oladi . Aytish mumkinki, kuy - ohang baxshi uchun sehrli qanotdir.

Ana shu qanot uni hech bir baxshi ko'tarilmagan cho'qqilarga ko'tarib, million – million tinglovchilar qalbidan joy olishga olib keladi .

Baxshi faqat dostonlarning o'ziga xos talqinlari ustida bosh qotiribgina qolmasdan o'zi ham yangi dostonlar yaratishi kerakligini Abdinazar baxshi payqagan holda o'zi ham dostonlar yozishga kirishib ketadi . U el oralab doston kuylab yurarkan , qatag'on zamonida Boysun tomonda Tursun mergan degan bir zo'r polvon yashab o'tganligini eshitib qoladi . Uning ishlaridan hayratlanadi, shu odamni doston qilishga bel bog'laydi va dostonni tezda yozib, uni "Tursun mergan va Ramazon chobag'on" deb nomlaydi . Bu doston kitob holida chop ham etiladi . Bu baxshining o'zi yaratgan birinchi dostoni edi . Baxshi bu dostonida Tursun merganni ta'rif etib , kishilarni mardlik va halollikka undaydi.

"Qiziriqda yashab o'tgan Davrqul polvon haqidagi rivoyatni gazetadan o'qib qoladi . Bu polvonning taqdiri va hayotini o'rgana boshlaydi . Shu o'rganishlar natijasida Abdinazar baxshi Poyon o'g'li o'zi o'rganayotgan Davrqul polvon baxshiga qarindosh bo'lib chiqadi. Shu ma'lumotlar asosida "Davrqul polvon" nomli doston yaratadi . Bu doston 2003-yil "Adolat" nashriyotida kitob holida bosilib chiqadi ." ⁸ Baxshining "Davrqul polvon" dostoni "Alpomish avlodlari" turkumiga kiruvchi doston hisoblanadi . Dostonda Davrqul polvon timsoli orqali xalqimiz mardligi , jasurligi , dovyurakligi , botirligi , bir so'zliligi , mehr - oqibati , oqilu donoligi o'zining ta'sirchan ifodasini topgan . Bu dostonni mustaqillik dostoni desakham bo'ladi . Dostonda Davrqul polvon va uning avlod - ajdodlari , salafлари, safdoshlarining oktabr to'ntarishidan to mamlakatimiz mustaqilligigacha bo'lgan taqdirlarini to'laqonli ifodalashga harakat qilgan.

Baxshi bugungi kunda Gulboy Mirzayev, Muhammad Eshboyev, Sherali Jumayev, Zulxumor Shernazarova, Ilhom Norov kabi shogirdlar yetishtirdi .

⁸Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, " Adolat ". 2003.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li hayoti bilan yaqindan tanishar ekanman , baxshining umr yo'li biz yoshlar uchun ibrat olsa arzigulik ekanligiga amin bo'ldim . Abdinazar baxshi hayotning pastu balandliklariga, hayot sinovlarida birdayin masrur turdi . Faqat oldinga qarab intildi . Yaxshi kishilar davrasida bo'lishni , yaxshi ishlar qilishni umrining mazmuniga aylantirdi . Abdinazar baxshi o'zini turli sohalarda sinab ko'rdi . Goh texnik–mexanik , goh muhandis - agronom, goh bo'lim boshlig'i, goho esa boshqaruv raisi o'rinbosari vazifalarida ishladi . Lekin bir zum bo'lsa – da , do'mbirasini qo'lidan qo'ymaydi . Ustozlaridan o'rgangan, o'zi yaratgan dostonlarni aytib , doston ixlosmandlarining ko'nglini xushnud etib kelayotgan baxshilardan biri hisoblanadi . Shogirdlar yetishtirib , ularga baxshichilik san'atining sir – asrorlarini o'rgatib kelmoqda . Abdinazar baxshi garchi ustoz darajasiga ko'tarilgan bo'lishiga qaramay , o'z ustida ishlashdan hech vaqt to'xtamadi . Baxshi xalqimizning qadimiy va boy adabiy merosi bo'lgan , xalq og'zaki ijodining noyob durdonalarini kelajak avlodga yetkazish yo'llari haqida ko'p o'ylaydi . Bugungi kunda dostonchilikni qadrlamaydigan kishilarni ko'rib kuyinadi . Shogirdlarining erishgan yutuqlarini eshitib suyunadi . Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki , Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining 60 yillik umri o'tmish va kelajak uchun muhim ko'prik vazifasini o'taydi.

II bob.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li repertuari o'ziga xos , takrorlanmas tarzda boy va rang – barangdir . Bir tomondan , qadim – qadimdan ota – bobolarimiz yaratib , avloddan – avlodga , tildan – tilga suyak surib kelgan an'anaviy xalq dostonlarini ustoz baxshilardan o'rganib , ularni zo'r mahorat , yuksak iqtidor bilan kuylab kelgan bo'lsa , ikkinchidan , kuchli badihago'ylik bilan yangidan – yangi termalar , zamonaviy dostonlar yaratib , hatto ularga kuylar bastalab , tinglagan kishi borki , sel bo'lish darajasiga tushadigan tarzda ijro etadi .

Surxon vohasida yurtboshimiz ta'kidlaganidek , “Elim deb , yurtim deb” yashaydigan polvonlar , chavandozlar , bir so'z bilan aytganda , doston bo'lishga arzigulik kishilar ko'p . Abdinazar baxshi Poyon o'g'li biz tilga olgan polvonlar , chavandozlarning hayoti va ijodini , ularning el ichida ko'rsatgan mardliklarini , jasurligini , jasoratini , o'zgalarga qilgan yordamlarini o'z dostonlarida ifodalagan. Shunday dostonlaridan biri biz yuqorida nomini keltirgan “Davrqul polvon” dostonidir. Bu dostonda baxshi Davrqul polvonning otasi Eshqurbonboy , uning ayoli Xonimoy momo , ularning farzandlari haqida , Davrqul polvonning ukalari Poyonqul (Abdinazar baxshining otasi) , Ro'ziqul haqida kuylaydi. Yana Davrqul polvonning amakivachchalarining ko'pkari , kurashdagi shijoatu jasoratlari haqida ham zavq – shavq bilan kuylaydi.

Asar bilan bevosita tanishar ekanmiz , avvalo , Boysunning tog'li Xomkon qishlog'ida tug'ilib o'sgan Davrqul polvonning butun Janubiy O'zbekistonda mashhur polvon va chopag'on sifatida dovuq solganiga , shu bilan birgalikda yosh o'sib kelayotgan bolalarga ta'lim berayotgan taniqli o'qituvchi bo'lganiga amin bo'lamiz. Abdinazar baxshi Poyon o'g'li dostondagi quyidagi misralar bilan ham yuqoridagi gaplarni isbotlagandek bo'ladi:

Ota-bobom yurti Xomkon ,
So‘rasangiz , Boysun tomon ,
Ko‘hitang tog‘dan normog‘on ,
Dehqonoboddan bermag‘on .

Ma‘lumki , har bir baxshining mahorati u yaratgan asarlaridagi tashbehlarda namoyon bo‘ladi . Tashbehtar esa baxshilikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi . Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining ham go‘zal tashbehlari mavjud . Masalan , “Ko‘zidan yosh to‘kilgan , qaddi yoyday bukilgan , rangi kirday siqilgan , tol xivichday egilgan , g‘am - kulfatdan yiqilgan , taxt-baxtidan ayrilgan , lochin qanoti qayrilgan , g‘arib holini so‘ragan , Boybo‘ri otammisan ? ” kabi tashbehtar bor . To‘g‘ri , bu keltirilgan parcha “Alpomish” dostonidan olingan , lekin tashbehtar Abdinazar baxshining o‘zini bildiradi .

Yana baxshining mahoratini obraz yaratish usulida , qahramon ichki ruhiyatini qay holatda ifodalashida , kuy bastalashida ko‘rishimiz mumkin .

Abdinazar baxshining mahoratini tabiat manzarasini tasvirlashida ham ko‘rish mumkin . Baxshi tabiat manzarasini shunday jonli tarzda ifodalaydiki, buni o‘qiyotgan kitobxon o‘zini shu tog‘larga borib qolgandek his qiladi . Bir o‘rinda baxshi Xomkonning go‘zalligini ta’riflab shunday yozadi:

Tog‘lari archaga kon ,
Misoli jannatmakon ,
Adir, soylari bog‘ , chaman ,
Archazor baland tog‘lari ,
Xushmanzara har yoqlari ,
Lalmi o‘sar daraxtlari ,
Mevalari shirin - sharbat ,
Dardga forig‘ chorbog‘lari .

Bu yerning giyohlari ko‘pligi , karomatli ko‘llarining borligi , Haqning nazari tushgan diyor ekanligini ham ta’kidlab o‘tadi . Bunday havosi musaffo joyda

o'sgan har bir kishi sog'lom bo'lib voyaga yetadi . Abdinazar baxshi ham shu yerda o'sgan , qonida jo'sh urayotgan baxshichilik uni to'ylarda , sayllarda va bayramlarda doston va termalar kuylashga undaydi.

Baxshining “ Davrqul polvon ” dostonida o'zbek xalq o'yinlarining nomlari ham keltirilgan. Masalan, oshiq o'yini, ko'chmak o'yini, qalama tayoq, chaqmoq tosh, kadi tepib sindirish o'yini kabi o'yin turlari keltirilgan.

Dostonda Davrqul polvonning otasi Eshqurbonboy o'zbek xalq qo'shiqlaridan xirmon , qo'sh qo'shiqlarini yaxshi kuylay olishini , yoshligidan odamlarning gurungiga quloq solib , tezda aytilgan rivoyat, maqol-matallarni yodlab olishini , o'zining ham ovozi shirali ekanini , baxshilardan qilib qo'shiq aytsa , hamma quloq solishini , xirmon qo'shiqlari bilan birga ro'za-ramazon oylarida ramazon qo'shiqlarini ham ayta olishini Abdinazar baxshi o'z dostonida keltirib o'tgan.

Dostonda o'zbek xalq maqollarini ham uchratamiz . Bu esa Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining elda mashhur bo'lgan xalq naqlaridan xabardor ekanligini va bu naqlardan o'rinli foydalanganligini ko'rish mumkin. Dostonda quyidagi o'zbek xalq maqollarini uchratamiz:

1. Uyga kelganni it qopmas,
Yaxshi ot egasin tepmas.
2. Aql yoshda emas , boshda.
3. O'zga yurtda shoh bo'lguncha , o'z yurtingda gado bo'l.
4. Ming qo'shchiga bir boshchi.
5. O'zingni er bilsang , o'zgani sher bil.
6. Ot o'rnini toy bosar.
7. Olim bo'lma , odam bo'l.
8. Yer haydasang kuz hayda,
Kuz haydamasang yuz hayda.
9. Zamon senga boqmasa , sen zamonga boq.
10. Bir yigitga yetmish hunar oz.

11. Siringni aytmagin hargiz nomardga,
Nomard qursin bir kun qo‘yar uyatga.
12. Har kim ekanini o‘radi.
13. Yaxshi yeydi oshini,
Yomon esa boshini.
14. Yaxshidan yomon chiqdi , deb kuyunma , u ham tortadi asliga,
Yomondan yaxshi chiqdi , deb suyunma , u ham tortadi nasliga.

Baxshining “ Maqol aytdim gapni gapga uladim ” , degan so‘zi ham shu maqollarni o‘z dostonida o‘rinli qo‘llaganidan dalolat beradi . “ Intilganga tole yor ” , “ Jannat onalar oyog‘i ostidadir ” kabi so‘zlarning uchrashi Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li dostonining badiiy mahoratini ko‘rsatadi.

Dostonda toponimlar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan . Masalan , Xomkon , Kattapoy , Uzun o‘lan yaylovi , Tevarak o‘lan yaylovi kabi joylarning kelib chiqish tarixi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

“ Beshbuloqdan bir kechada katta bir ko‘l paydo bo‘lgani , bu ko‘l o‘yilib tuz koni chiqib qolganini yozadi:

Archaga ham kon deyishgan,
Giyohga ham kon deyishgan,
Jannat joy ekan deyishgan,
Qadim aymoq zamonda,
Katta do‘konlar solishgan,
Tuproqqa ishlov berishib,
Temir ham cho‘yan solishgan,
Ham kon, ham kon deyishgan,
Hammasiga kon deyishgan,
Tog‘ nomi ham kon deyishgan
So‘ngra Xomkon deb ketishgan. ”⁹

⁹Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003. -B .6-7.

Xomkon tog'ining nomi shu tariqa kelib chiqqan ekan.

Yana bir o'rinda baxshi Kattapoy yaylovi nomining kelib chiqishi haqida shunday deydi:

“ Bu Kattapoy bobolarimiz kelgan zamonlarda Oqman degan boyning joyi ekan , Oqman juda ham gavdali , ulkan odam bo'lgan . Bosgan izining uzunligi besh qarich , har qadami ikki quloq kelar ekan . Uni odamlar “ Oqman kattapoy ” , deyishar ekan . Bu yaylovning nomi Oqmandan qolgan , shundan beri Kattapoy deb ketishgan . ” ¹⁰ Baxshi so'zida davom etib : ” Kattapoydan bunday o'tsangizlar Uzun o'lan , To'barak o'lan (baxshi Surxon shevasida “ Tevarak ” nomini shunday ataydi) o'larga kelasiz . Bu yaylovlarning kelib chiqish tarixini aytib beray . Bu yaylovlarda ham bobolarimiz qo'y - qo'zilarni haydab , yaylovdan yaylovga ko'chib yurganlarida , shu qo'nishga kelib joylashganlarida , bir dono darvesh Xomkonga , shu yerlarga kelgan ekan . Shu qo'nishda qo'ng'irotlarning katta boylaridan qizini kuyovga berib ayni bahor pallasi uzatish arafasida ekan . Shunda dono darvesh dalli devona bo'lib , hushidan begona bo'lib , shu to'yning ustidan kelib qolibdi . Qiz – juvonlar yig'ilib halginchak solib , uzun – uzun o'lan aytib turganligi qulog'iga chalinibdi . Darvesh o'lanni eshitib , zavqlanib , yoshlik davri esiga tushib , qalbi qaynab - to'lib , qiqirlab kulib o'tib ketibdi , to'y bo'layotgan joyga yaqinlab yetibdi , archazorlarni oralab o'tibdi . Hamma tomon chiroyli , yam – yashil , gullar turli rangda ochilgan , kakliklar sayrashgan , qiz - kelinlar sayr qilishib , to'da - to'da bo'lishib , o'ynab – kulishib , gullar terishib , bir – birlariga so'z qotishib , hazil - huzil gap otishib , shirin - shakar o'lan aytishib yurgan ekanlar . Dono darvesh tevarak – atrofdan qiz-kelinlarning navbat - navbat shu aytgan o'lanlarini eshitgan ekan . Haligi kishi o'lanlarni miriqib eshitib o'tib ketibdi . Qiz - kelinlar darveshning

¹⁰Davrul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003.-B .118-119.

o'tganini sezmay ham qolishibdi . Dono darvesh to'yga o'tib , ovqatidan to'yib , qurdagi odamlarga gurgun berib : “ Men ko'p yurtlarga bordim , har xil ellarni ko'rdim , cho'lu biyobonlardan yurdim . Sizning yurtlaringizda ham hafta mehmon bo'ldim . Shu yerning odamlaridek sodda , saxovatli kishilarni uchratmadim . Yer yuzida jannat bor bo'lsa , shu joylar jannat ekan . Behishtning shamolini shu yerda his qildim . Joylaringiz juda zo'r ekan , ulug' aziz - avliyolaringiz bor ekan , ko'p sirlarni bilmapman , azizlarni ziyorat qilib kelyapman . To'yni eshitib , shu tomonga jo'nadim . Narigi ovuldagi yaylovga yetganimda qulog'imga uzun - uzun o'lan eshitildi . Qizlar uzundan - uzun o'lan aytishayotgan ekan . To'yxonaga yaqinlashganimda yana o'lan aytilayotganligi qulog'imga chalindi . Bu o'lan o'zgacha bo'ldi . Chor tarafdin qiz - kelinlarning navbat - navbat o'lan aytishayotganligining guvohi bo'ldim . Tog'dagi buta , gilyohlarni , ko'm - ko'k archalarni , turli - tuman gullarni ko'rib , qiziq – qiziq o'lanlarni eshitib , yuragim gupillab urib , kayfim choq bo'lib , fikru o'yim oq bo'lib , qalbim yana uyg'oq bo'lib , yurishim chaqqon quvnoq bo'lib , o'n yosh yasharganday bo'ldim . Shunday qilib , ” Uzun” o'landan o'tib , “ Tevarak o'langa ” yetib , to'yning ustidan chiqib qoldim - da ” , deb gurgun berayotir . Shundan beri bu yaylovlarni Uzun o'lan , Tevarak o'lan deb atashar ekan . Bu joylarning tarixi shunday bo'lgan ekan . Zahiriddin Muhammad Bobur ham Shayboniixonidan qochib ketayotganda , shu Kattapoyga kelib , bir oycha turgan ekan . ” ¹¹

Baxshi dostonida Surxon elining mehmondo'stligini ham yozadi . Uyiga mehmon kelsa , albatta , tandiri tayyorlashlarini ham aytadi . Yoki Davrqulning pul ishlash maqsadida Tilovboyning uyiga borganini baxshi shunday tasvirlaydi: “ Ana Davrqul cho'pon bilan ko'rishib , tanishib , gurgunlashib , shu kecha boyning uyiga mehmonlikka tushib , Tilovboy

¹¹Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003.-B .119-123.

ham kelib salomlashib , kelgan mehmon yosh yigitcha bo'lsa ham izzat - hurmat qilib , dasturxon yozib , nozu nematlarni to'kib , ana tuz taomdan keyin boy yosh Davrqul bilan suhbatlashib o'tiribdi .¹²

Baxshi dostonda oktabr to'ntarishining ayanchli tasvirini ham keltiradi . Odamlar orasida yurt buzilgani , bosqinchi , diyonatsizlar kelib, yurtni poymollab yurgani haqida gap tarqalganini yozadi . Bu davrda moli bor boyroq kishilarning mollarini zo'rlab , qiynab tortib oladilar , keyin quloq qilishadi , eshon - mullalarni o'z uyida ham tinch qo'yishmagan . Bu shaxslar qizillar edilar . Davrqul polvon ham xuddi shu davrda tug'ilgani uchun : “ Nasib bo'lsa , bobolari , tog'alariday el orini olgan polvon , chopag'on bo'lsin . Amir Afg'onistonga qochdi , yurt buzildi . Bu o'g'lingiz yangi davrda dunyoga keldi . Oti Davrqul bo'lsin ” , deyishib kitob ochib , ismini o'nglab qo'yishdi .¹³

Bu davrda yurt ozodligi uchun qizillar xalq orasida ” bosmachilar” deb gap tarqatishgani ham ko'rsatib berilgan . Yana 1941- yil urush voqealari ham tasvirlangan . Har bir jamoa xo'jaligiga majburiyat solingani , yetishtirilgan mahsulotlarni frontga jo'natishgani , g'alla , sariyog' , qurut va boshqa mahsulotlarni Xomkondan eshak , yilqiga ortib , Sherobodga olib kelib topshirib ketishganini bilib olamiz . O'sha vaqtlarda front ortida chollar , xotin – xalaj , yosh – yalanglar qolishgandi . Ayollar yozda o'roq o'rishar , chollar xirmon yanchib , g'allani tozalashardilar . Xalq och , qiynalgan . Qishloqlarda yuqumli kasallik tarqab , butun xalq xastalanib qolgan vaqtlar edi . Baxshi mana shunday jamiyatdagi o'zgarishlarni o'quvchi ko'z o'ngida jonli tasvirlay olgan , desak mubolag'a bo'lmaydi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li Davrqul polvon , chopag'on bo'lishi bilan birga maktabda o'qituvchilik qilganini ham ta'kidlaydi va shunday

¹²Shu manba. –B. 18.

¹³Shu manba. –B.44.

yozadi: “ Davrqul polvon butun Surxon vohasining oru nomusi uchun ko‘pkari , olishlarda maydonga tushib , davrini surib yuraberdi . Ko‘pkari , olishning izidan quvmas , ko‘proq maktabda yoshlarga ilm berishga intilar , kasbini ardoqlar edi . Kun ora ko‘pkari , olishga ketsam , bolalar chalg‘ib qoladi , biz kelajakda bilimli avlod qoldirmog‘imiz darkor , der edi . Ko‘pincha dam olish kunlari kurash , ko‘pkariga borar edi . “ ¹⁴

Dostonda Davrqul polvonning mardligi , rostgo‘yligi , tantiligi baxshi tomonidan kuylangan.

Ayni chog‘da dostonda ibratomuz voqea - hodisalarga , pand – nasihatlariga ham keng o‘rin berilgan . Baxshi ularni mahalliy shevaga xos betakror tashbehlar , badiiy o‘xshatishlar , sifatlashlar bilan keltiradi va bir o‘rinda biz yoshlarga shunday murojaat qiladi:

Asli kasbi muallim,

Savodli, dono, olim,

Yoshlarga beradi ta’lim,

Alifbedan saboq , ilm ,

Davrqulday inson bo‘l.

Yana bir o‘rinda baxshi shunday yozadi:

O‘z xalqiga hurmatli,

Qayga borsa izzatli,

Tog‘ bardosh , sabr - toqatli,

Qo‘li ochiq , saxovatli,

O‘z yurtiga sadoqatli,

Davrqulday polvon bo‘l.

Dostonda ayollar obraziga ham alohida e’tibor berilgan . Shunday obrazlardan biri Davrqul polvonning umr yo‘ldoshi Xonimoy obrazi tasirchan tarzda yoritilgan . Polvon hayotdan ko‘z yungach , to‘rt o‘g‘il , ikki qizni voyaga yetkazish uning zimmasiga tushadi . Qiyinchiliklarga

¹⁴Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003.-B .145.

qaramay , u farzandlarini el – yurt xizmatiga kamarbasta kishilar qilib tarbiyalaydi.

Xomkonlik Qurbon polvonning onasi Irisoy momo haqida shunday deyiladi: “Irisoy momo Xomkonning Galaquduq degan joyida yashab o‘tgan . Kelin bo‘lib tushib , chimildiqda o‘tirganida bir toyloq quduqqa tushib ketibdi . Quduqning chuqurligi 20 – 30 qulochcha kelar ekan . Odamlar toyloqni quduqdan chiqara olmay yotganida , chimildiqda o‘tirgan Irisoy kelin qaynonasidan so‘rabdi: “ Momo bu odamlar quduqqa aylanadi . Nima qilyaptilar ? “ . Qaynonasi aytibdi: ” Quduqqa bir toyloq tushib ketgan , ertalabdan beri tortib chiqara olmay yotibdi ” . Shunda kelin: “ Odamlarga ayting , toyloqning beliga arqon bog‘lab o‘zlari nari ketsin , men borib ko‘rayin ” debdi . Kelinning aytganini qilishibdi . Irisoy kelinlik libosi bilan borib toyloqni bir silkib ko‘tarib , quduqdan chiqarib tashlabdi . Shunda kelinning oyog‘idagi ko‘k kovushining tovonini ikki bo‘linib titilib ketgan ekan. Alp onadan alp farzandlar tug‘iladi , deydilar . Qurbon polvonning enasi shunday alp ayol ekan ” . Aslida bor urpog‘iga totiydi , deganlaridek Irisoy momo ham Barchinoyday alp qizlarning avlodi hisoblanadi . Bu obrazda baxshi o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan ibo , hayo kabi xislatlarni ko‘ratib bergan . Yuqorida keltirilgan “ Odamlarga ayting , toyloqning beliga arqon bog‘lab o‘zlari nari ketsin , men borib ko‘rayin ” , degan so‘zlaridan uning iboli , hayoli , or - nomusli o‘zbek ayoli ekanini kitobxon bir o‘qishdayoq bilib oladi.

Davrqul polvonning onasi Uldona momo obrazi ham ta’sirchan tarzda yoritilgan . Turmush o‘rtog‘i Eshqurbon bobodan va qizi Qizlarto‘radan bir kunda ayrilib qoladi . Baxshi Uldono momo obrazining ichki ruhiy holatini ham tasvirlaydi va shunday yozadi: “ Uldona momo to‘rasini yo‘qlab, yurak bovrini dog‘lab , oh urib , zor – zor yig‘lab: “ To‘ramdan ayriliq taqdirimda bor ekan , bolamdan ayriliqqa qanday ko‘nayin , peshonamda bu ham bormidi ? ! Hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan , dunyoning shodligini

koʻrmagan qizim ham jon berdi , dunyoning bu ishlariga qanday sabr qilay? Bir kunda ikkovidan ayrilsam , bu musibatga qanday chiday ? Oh , sen oʻlguncha , menday shoʻrpeshona enang oʻlsa boʻlmasmidi ?! deb qizi Qizlartoʻraning ustiga oʻzini tashlab , misli devona boʻlib , es - hushidan begona boʻlib , qalbi gʻamxona boʻlib turgan ekan ” .¹⁵

Baxshi Uldona momo obrazida sabr – toqatli , bardoshli ayol timsolini yarata olgan . Bir kunda ham qizidan , ham umr yoʻldoshidan ayrilishiga qaramay , qizlari Bibidona , Ulgʻay , toʻqqiz yoshli qizi Ungal , oʻgʻillari Davrqul , oʻn ikki yoshli oʻgʻli Poyonqul , besh yoshli Roʻziqullarning baxtiga u bardoshli boʻlishini ich – ichidan , yuragidan his qildi va shular uchun ham belini mahkam bogʻlab , dadil boʻlib , qaygʻu - gʻamlarini orqaga tashladi . Oʻzini ish bilan chalgʻitdi . Qolgan farzandlarini oʻylab , ularning boshini siladi va ularga Xudodan umr yoʻldoshi Eshqurbon boboning va qizi Qizlartoʻraning qolgan umrlarini berishini soʻradi . Bolalariga dalda berdi . Bolalariga yaxshi tarbiya berdi . Oʻgʻillari Davrqul va Poyonqul polvon va chopagʻon boʻlib yetishadilar . Poyonqul oʻz elining oqsoqoli etib tayinlanadi. Bu ham Uldona momo mehnatining samarasi hisoblanadi.

Yana bir oʻgʻli Roʻziqul ziyoli odam boʻlib yetishadi . U avval Chilonzor qishlogʻida , keyinchalik ota yurti Xomkonda maktabga direktorlik qiladi . Oʻz tashabbusi bilan yangi maktab binosini qurdiradi . Oʻz kasbining bilimdoni , dono , kelajakni koʻra oladigan inson boʻladi . Koʻplab shogirdlar yetishtiradi . Xullas , Eshqurbon boboning hamma farzandlari imonli , eʼtiqotli , oʻz davrining yetuk kishilari boʻlib yetishishida shu mushtipar ayolning xizmatlari beqiyosligini baxshi oʻz soʻzlari bilan ishonchli tarzda ifodalagan.

Eshqurbonboyning onasi Qirmiz momo turmush oʻrtogʻi vafot etgach , besh farzand: toʻrt qiz va bir oʻgʻil bilan yolgʻiz qolib ketadi. Besh farzandni qiyinchilik bilan voyaga yetkazadi . Eshqurbonboyning otasidan farzandlariga

¹⁵Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003.-B .90-91¹⁵

mol – dunyo qolmagan edi . Onasi kecha – kunduz tinmay ip yigirib sotib , mehnat qilib , bolalarini halol pul bilan katta qiladi . Baxshi bu obrazda o'sha davrdagi butun Surxon ayollarining vafodorligini , farzandlariga bo'lgan mehru muhabbatini tasvirlab bergan .

Baxshi dostonida o'z bobosi - polvonning otasi Eshqurbonboy haqida harorat bilan to'liqlanib kuylaydi va shunday yozadi: “ Uning ikki suruv qo'yi bor edi . Ziyoqul , To'g'ay , Qambar degan cho'ponlari bor edi . To'g'ay , Qambarlarni o'zi uylantirgan edi ... Xomkonda lalmi yerga dehqonchilik qilar , ikki juft qo'sh ho'kizi bor edi . O'zining bo'lasini Xo'shay dehqonchiligini qilib berardi . Eshqurbonboyning dehqoni edi . Ho'kizi bilan boshqalarning yerini ham haydatib berar , evaziga hech narsa olmasdi . Eshqurbonboy yiliga bir marta molini bozorga olib borar , yetim – yesirlarga bittadan qo'yni pulidan berar , xayr – ehsonni ko'p qilar , zakotni ham kanda qilmas , xasislik nimaligini bilmas , saxiylik qilar edi”¹⁶

Davrqul polvon ko'pkarilarda ushlagan ulog'ini hech bermagan , lekin yoshi ulug' chopag'onlarning hurmatini qilib , ularning ushlagan ulog'ini tortmaydigan odati bor edi . Bu esa uning mardligidan dalolat beradi.

Biz yuqorida Davrqul polvonning asl kasbi o'qituvchi bo'lganligini aytgan edik . Baxshi uning yoshlarga ta'lim – tarbiya berishini , boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodini tezda chiqarishini , kasbdoshlari ham uning bu xislatini qadrlab , tasannolar aytganini ta'kidlagan . Agar darsga biror o'quvchi kelmay qolsa , orqasiga ko'tarib olib kelgani haqida ma'lumot berilgan . U o'z kasbi sohasida ham tanilib , elning ardog'ida bo'lib , “ Xalq maorifi a'lochisi ” unvoniga sazovor bo'ladi. Maktabda To'ra degan polvon kishi ham dars berardi. Davrqul polvonning ta'rifini eshitib , uni o'ziga shogird qilib oladi va unga “ Kurashda faqat kuch – quvvat emas , aql – idrok , farosat kerak bo'ladi . Chaqqonlik , epchillik , dovyuraklik talab qilinadi . Polvon toza , halol , mard bo'lishi shart . Buzuqlik va egrilikdan ,

¹⁶Davrqul polvon. Doston. –Toshkent, Adolat nashriyoti, 2003.-B .44.

harom – harishdan yiroq yurishi kerak . Agar kallangni ishlatsang , fil bo‘lsa ham ag‘darasan , aqling bo‘lmasa , pashshadan ham qo‘rqasan ” , deb kurash usullarining o‘ttiz ikki xilini , chil solishning o‘ttiz ikki turini o‘rgatadi .¹⁷

Yuqorida ta’kidlaganimizdek , Davrqul polvonning tog‘alariyu amakilari, amnavachchasi Abray polvonlar hamda ukalarigacha alp bo‘lganlar. Bu avlodni baxshi: “ Ko‘rganlar: “ Ana , gala zo‘rlar , gala sherlar , gala bo‘rilar , gala botirlar , chopag‘onlar , polvonlar , Alpomish avlodlari kelyapti ” , deyishardi ” , deya ta’rifu tavsif etadi.

Davrqul polvonning suhbatida bo‘lganlar uning: “ Ho‘ birodarlar necha dahani , elu xalqni oralab to‘y tomosha , bayram , yig‘inlarda olishdik , ko‘pkari chopdik , ko‘rdik . Lekin mening istagim shuki , chet mamlakatlarga borib ko‘pkari chopsak , kurash tushsak , o‘zbeklarning kimligini ularga ham tanitsak . O‘zbek xalqining bu o‘yinlarini ular ham bilarmikan , ularda ham bu urf – odatlar bormikan yoki yo‘qmikan . Bizning polvonlarday mard bo‘lib maydonda kurasharmikan , kurashi bizning kurashga o‘xsharmikan . Haqiqiy kurash bizning kurash bo‘lsa kerak ” , degan so‘zlarini eslashadi . Demak , Davrqul polvon chet mamlakatlarga chiqib , u yerning polvonlari bilan kurashishni orzu qilgan ekan . O‘zbek kurashi borligidan o‘zga mamlakatlar boxabar bo‘lishini xohlagan . O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zbek kurashi dunyo yuzini ko‘rdi. “ Oqqan daryo oqmay qolmas ” , degan gap rost ekan . Davrqul polvon orzu qilgan kunlarni uning farzandlari , nevaralari ko‘rdi . Oradan yillar o‘tib Davrqul polvonning farzandlari ham o‘ziga o‘xshagan oriyatli , mard insonlar bo‘lib , ot minib , kurash tushib , halol mehnati bilan vatanimizga xizmat qilib kelmoqdalar . Mana , Davrqul polvon orzu qilgan kunlar ham keldi: Ona yurtimiz mustaqillikka erishdi , bizning o‘zbek millatimiz dunyoga tanildi , shuning barobarida o‘zbek kurashi xalqaro sport turi darajasiga ko‘tarilib , o‘zbek kurashi haqiqiy

¹⁷O‘sha manba, -B. 104.

mardlar kurashi ekanligi jahonda e'tirof etildi . Ko'pkari ham jahon miqyosiga chiqishiga umid qilamiz.

Surxondaryo baxshilari repertuaridan “ Alpomish ” dostoni mustahkam o'rin olgan bo'lib , baxshilar bu dostonni alohida zavq – shavq , mehr – muhabbat va maroq bilan , ayni vaqtda o'ta mas'uliyat bilan kuylashadi . Chunki bu hududda baxshilar ham , yerli aholi ham Alpomishni ayni shu hududda yashagan tarixiy shaxs , o'zlarining o'z ajdodi deb bilishadi va uni nihoyatda samimiyat bilan tilga olishadi .

Bu viloyatda yashovchi qo'ng'iroq urug'iga mansub aholini “ Alpomish ” xalq badiiy tafakkuri mahsuli deya ishonirib bo'lmaydi . Shu sababli yerli aholi asrlardan buyon baxshilardan har bir to'yda , o'tirishda , bayram – sayllarda “ Alpomish ” ni kuylashni so'rashadi , ular dostonni eshitib horimaydilar , balki ruhanib yangidan – yangi zafarlarga intiladilar .

Zero , “ Alpomish ” dostoni jismoniy jihatdan baquvvat , ma'naviy , axloqiy va ruhiy jihatdan esa yetuk , mukammal ideal qahramonlarni tarannum etadi . Shuni alohida ta'kidlash lozimki , ushbu dostonida Vatan va vatanparvarlik , mardlik , botirlik , muhabbat va sadoqat , oila va farzand , qarindosh – urug' va mehr – oqibat , or – nomus , milliy vijdon , barcha xalqlar uchun mushtarak bo'lgan go'zal umumbashariy fazilatlar , odamiylik xususiyatlari va qadriyatlarning ifoda etilishi , hamma vaqt , hamma zamon uchun ham insoniy ideallar ulug'lanishi bilan bizga qadrlidir .

Ma'lumki , “ Alpomish ” dostoni o'zbek qahramonlik eposining eng qadimiy , eng mukammal namunasidir . Xalq baxshilarining musobaqalari , ijro mahoratini egallash darajasi ko'pincha “ Alpomish ” dostoni bilan belgilanadi.

Folklorshunoslik ilmida Fozil shoir Yo'ldosh o'g'lining “ Alpomish ” ni qahramonli , Ergash Jumanbulbul o'g'lining shu dostonni muhabbatli qilib

aytishi , Jasaq baxshining “ Alpomish” dostonini bir necha oylab kuylaganligi haqida ma’lumotlar bor.

Folklorshunos olimlar tomonidan Fozil shoir Yoldosh o’g’li kuylagan “ Alpomish” dostoni eng mukammali deb e’tirof etiladi . Shunga qaramasdan xalq baxshilari o’z hududlari maktablariga xos yo’nalishlarda bu dostonni o’z mavqeyi va tafakkur darajasidan kelib chiqib turlicha kuylashadi.

Surxondaryo dostonchiligida o’zining muayyan hurmatiga ega bo’lgan Abdinazar baxshi Poyon o’g’li o’zining mahorat sirlarini “ Alpomish” dostonini ijro etish jarayonida egallagan desak xato bo’lmaydi . Abdinazar baxshi Poyon o’g’li repertuaridan mustahkam o’rin olgan “ Alpomish ” dostonida Sherobod dostonchilik maktabiga xos xususiyatlar yaqqol ko’zga tashlanadi . Abdinazar baxshi Poyon o’g’li “ Alpomish” dostonining yana bir yangi variantini nashr ettirish arafasida turibdi . Abdinazar baxshi kuylagan “ Alpomish ” dostoni Fozil shoir Yo’ldosh o’g’li ijrosidagi dostonidan ba’zi o’rinlari bilan farq qiladi.

Jumladan , Fozil shoirning “ Alpomish ” dostonida Boybo’rining ukasi Boysarining eliboylik qilayotgan manzilining nomi quyidagicha keltiriladi:

“ Boysari o’n ming uyli Qo’ng’irot eli bilan ko’chib borib , Ko’kqamish ko’lida eliboylik qilib mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotib edi ” .¹⁸

Abdinazar baxshi dostonida esa bu nom Bo’zbiya nomi bilan tilga olinadi:

“ Ana , choparlar shohdan farmon olib , Olatovning narigi sirti Bo’zbiya yayloviga jo’nadi. Boysari o’n ming uyli Qo’ng’irot ovuli bilan Bo’zbiya yaylovida behisob chorva mollarini boqib o’tirar edi ” .¹⁹

Fozil shoir dostonida zakot hajmi haqida quyidagilarni ko’rish mumkin:

¹⁸Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yo’ldosh o’g’li. – Toshkent, “ Sharq ”, 2010. – B. 16.

¹⁹Alpomish. Doston, aytuvchi Abdinazar Poyonov. (hali nashr etilmagan).

“ ... - Biz akangdan kelgan zakotchi bo‘lamiz , bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz . “ Zakot qilinglar , bersa , zakotini olib kelinglar ”, - deb yuborgan , - dedi mahramlar “ .²⁰

Abdinazar baxshi dostonida esa quyidagicha keltiriladi:

“...Shunda choparlar boshlig‘i Do‘nanboy : “ Bizni shoh Boybo‘ri yubordi , oldin sizning ovulingizga keldik . Qo‘lingizda ming uyli Qo‘ng‘irot boylari bor ekan . Har bir uydin bir uloqdan zakot berar ekansiz ”.²¹

E‘tibor bergan bo‘lsangiz , Fozil shoir dostonida mahramlar boshlig‘i ham , uning ismi ham keltirilmagan . Abdinazar baxshi dostonida esa choparlar boshlig‘ining ismi Do‘nanboy ekanligi ta‘kidlanadi.

Abdinazar baxshi dostonida Boybo‘riyning zakot olish sababini choparlar boshlig‘i Do‘nanboy quyidagicha keltiradi:

“ ... Shunda Do‘nanboy Boysariga qarab avaylab , bugunning ertasini o‘ylab , ko‘nglini ko‘tarib: “ Shohimiz zakotdan yig‘ilgan mollarni Talqin cho‘liga suv chiqarishga yuborgan mardikorlarga oziq – ovqatga beryapti , shu ulug‘ savob ishga sizlar ham ulush qo‘shsangizlar zo‘r xayr – sahovatning egasi bo‘lasizlar ”, - deb ikki og‘iz so‘zlab turgan chog‘i ekan :

Og‘a quloq soling beri,
Sizda yo‘q hech kimning zo‘ri,
Elim deydi yoshu qari,
Ikkingiz og‘a – inisiz,
O‘ylab ish qiling Boysari.
Boybo‘ri savob ish qildi,
Saxiy cho‘lga yurish qildi
Katta namoyish qildi,
El – xalqning ko‘nglin xush qildi.

²⁰Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent, “ Sharq ”,2010. – B. 16.

²¹Alpomish.Doston, aytuvchi Abdinazar Poyonov.(hali nashr etilmagan).

Bu emas sizga xiyonat,
Gar bo'lsa sizda diyonat,
Bekorga chekmang o'hu – dard,
Ketmas xudo davlat bergan
Aka- uka o'rtasida
Hisoblanmaydi ketgan zot,
Ko'p bo'lmasa ozroq bering,
Bu tortishuv sizga uyat “.²²

Fozil shoir Yo'ldosh o'g'lining “ Alpomish ” dostonida Alpomishning otasi Boybo'ri Barchindan kelgan xatni yashirib qo'yadi . Bu xatni Hakimbekning singlisi Qaldirg'ochoyim topib oladi va akasiga beradi. Hakimbek esa : “ Oltoychilik yo'lda bo'lsa , qalmoqning elida bo'lsa , zo'r yovning qo'lida bo'lsa, bir xotin olamiz , deb sandirib o'lamizmi ” , - deb xatni tizzasining ostiga bosib o'tirdi.²³

Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining “ Alpomish ” dostonida esa Barchinoydan kelgan xatni choparlar Alpomishga ko'rsatadi . Alpomish bu xatni o'qiydi va xatning mazmunini otasi Boybo'riga aytadi . Boybo'ri o'g'lining bir qiz uchun Qalmoq eliga borishiga rozi bo'lmaydi . Shunda Alpomish : “ Ey , qiblagoyim otajon , Boysari akam ham bir so'z bilan achchiq ustida ketgan edi. Eskidan qolgan gap bor : “ Urusha turda ushlasha tur ” , deydi , nima bo'lganda ham sizning bovrangiz , ichkuyaringiz. Qolmoqlar ko'p taadi o'tkazibdi. G'ayri yurtda musofirlik dardi qiynab , oldingi qilmishiga afsus qilib xabar yuboribdi . Ruxsat bersangiz holidan bir xabar olib kelsam , nochor qolganda og'ayindan hol so'rash ham savob ish bo'ladi ” , deb otasiga aytayotir, lekin Oybachinning toloshda

²² . Doston, aytuvchi Abdinazar Poyonov.(hali nashr etilmagan).

²³ Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. – Toshkent, “ Sharq ”, 2010. – B. 69.

qolganini uyalib iymanib, “xotin uchun boraman” deyayotir deb o‘ylaydi otam degan xayol bilan aytmadi.²⁴

Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘lining dostonida Alpomish Qalmoqqa ketayotganda chiltonlarning manzilgohida bir kecha tunab qoladi. Tushida Barchinni ko‘radi:

“Ot qoqib, yo‘l yurib borgan Alpomishni chiltonlar suhbatida o‘tirib – o‘tirib uyqu olib ketdi. Chiltonlar: - Bu bachcha Shohimardon pining murid ekan. Bizning suhbatimizda bo‘ldi, vaqtini xushlay olmadik, - dedi. Chiltonlar ilmi karomat bilan Chilbir cho‘lidan, Oyna ko‘lidan, baxmal o‘tovda uxlab yotgan yeridan, Barchinning ruhini olib keldi tanidan. Alpomish munda uxlab yotibdi, uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o‘rtada bir yerga qo‘ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltonlardan Barchinning ruhiga tegdi. Barchinning ruhi sharobni qo‘liga olib, Alpomishni ko‘rib, bir o‘zi ichgani ko‘ngli bo‘lmay, Alpomishning ruhiga oling – oling qilayotir.” Ikkisining ruhi suhbatlashadi. Sahar vaqti bo‘lganda chiltonlar ikkisining ruhini tanalariga qaytaradilar.

Abdinazar baxshi dostonida esa Hakimbek Qalmoqqa borayotganda ikki cho‘ponning qo‘shxonasida bir kecha tunab qoladi:

“Bular o‘zi ikki cho‘pon edi. Kattasini Kaykubod der edi, ikkinchisini esa Shodiyor der edi. Qolmoqshohning eng saralangan oq – qora bosh qo‘ylarini boqardi. Cho‘ponlar Alpomishga qarashib, qaddi – qomatidan, kuchu qudratidan, chaqnab turgan olov ko‘zidan yuragi holsirab, o‘pkasi tushib, bu bir qonxo‘r jangchiga o‘xshaydi, deyishib, bunga bir jonliq mol so‘ymasak bo‘lmas, “mehmon otangdan ulug‘”, deydi deb bir qo‘yni so‘yib, pishirib oldiga qo‘yib, topgan – tutganini dasturxonga to‘kib siylayberdi. Alpomish qo‘yning go‘ishtini yutib, suyagini purkab yuboraberdi. Cho‘ponlar bir – biriga qarab, zo‘rg‘a bittadan qobirg‘a go‘isht

²⁴. Doston, aytuvchi Abdinazar Poyonov.(hali nashr etilmagan).

²⁴Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent, “Sharq”, 2010. B .112,114.

yeb qoldi . Qolganini Alpomish tomogʻidan oʻtkazib , choʻponlarga qarab qorni toʻymay qolib : “ Nima qoʻygan edingizlar , - tovuqma , joʻja ? ” , dedi. “ Ogʻa sizga qoʻy soʻybedik ,” deyishdi .”²⁵

Fozil shoir Yoʻldosh oʻgʻli dostonida Qorajon ham , Alpomish ham doʻst boʻlishlarini tushlarida koʻradi.

Abdinazar baxshi dostonida esa ikkisining doʻst boʻlishlarini faqat Qorajon tushida koʻradi.

Fozil shoir Yoʻldosh oʻgʻli dostonida Surxayil kampir Alpomishdan oʻch olmoqchi boʻlib xiyla-nayrang ishlatganda Alpomishga alp oʻgʻillarini Qalmoq xoni oʻldirganini , hozirda qirqta qizi borligini, ular Alpomishga yaxshi xizmat qilishini aytadi . Uni mast qilib, oʻzining oti Boychibor yordamida zindonga tashlaydi.

Abdinazar baxshi dostonida bu tasvir sal boshqacharoq tarzda tasvirlanadi. Surxayil kampir bor tilla - tangasiga qishloqdagi qashshoq odamlarning boʻyi etgan oʻn sakkizta qizini sotib oladi. Bir podachi hamsoyasining irkillab oʻtirgan 20 yoshli kal bir qizi bor edi, lekin juda chiroyli, yoqimtoy, xushsurat , nozli edi . U : “ Men kalman, menga kim qaraydi ” , dedi. Shunda maston: “Seni hammasidan suluv qilaman, chiroyli, husndor farishtasan . Boshingga soch qoplayman. Turli libos , kiyimlar kiyasan” , dedi. Ana , maston sakkizta qora biyaning dumini qirqib , soch qilib uyirib , boshiga toʻr qilib kiydirdi. Nurbibi kalning sochi choʻlgʻanib yerga tushdi. Hamma qizlarga zarrin parcha adras kiydirdi. Hammasidan kal qiz goʻzallashib , bir pari paykar , xuriliqo qiz boʻldi. Barini tuzab , bezab, nima maqsadda yurganini aytdi: “Meni ena momo deysilar, Qongʻirotning Alpomishi keladi. Men bir musofir, bechora , beqaror , soyobonsiz, oʻgʻillaridan ayrilib , nevara qizlari bilan qolgan kampir boʻlaman, har xil hiyla bilan olib kelib mehmon qilaman. Senlar atrofini aylanib , men tay - yorlagan qirq goʻzadagi sharobni quyib uzatib, nozi muqom bilan aqlini olib ,

²⁵Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yoʻldosh oʻgʻli. – Toshkent, “ Sharq “,2010. B.65.

mahliyo qilib , shirin soʻz bilan imo , ishora , ishva , tabasum bilan , qalbini band qilinglar. Uning ustiga sharob quyib beringlar , oʻzlaring ichmanglar, men sharobga behush qiladigan dori soldim” , - deb qizlariga tushuntirib, turli meva– cheva tayyorlab , qassob , oshpaz – pazandalarni yigʻib, Murodtepaning chap tomoniga ikki oʻtov tikib oʻtiradi” .

Voqealar shu tarzda davom etadi. Alpomish mast boʻlib hushidan ketadi.

Baxshi yana davom etadi:

“Alqissa , Hakimbek qirq goʻza sharobni boʻshatib tong chogʻida dorilar ozor berib, zaharli zarbasi oʻtib , hushidan ketib gursillab quladi. Shunda maston Alpomishning qilichini sharillatib sugʻurib oldi. Bu qilich Hakimbekning yetti yoshligida piri hazratlari tushida koʻrinib, bu qilich seniki deb qirq Chilton , toʻrt choriyor , Xidir alayhissalom bobolari boshiga qoʻyib ketgan edilar. Ertalab turib qilichni olib , bu sirni hech kimga bildirmay, otamning eski qilichlaridan deb osib yurardi. Qilich nazari sehrli qilich edi , urushli kunda besh yuz gaz boʻlib choʻzilar , dushmanning boshi tutday toʻkilar edi. Qilichning hamma sirini faqat Alpomishgina tushida koʻrib bilar edi.

Surxayil maston qilichni dast koʻtarib , Hakimbekning boʻyniga solmoqchi boʻldi, shu vaqti moʻjiza roʻy berib , xuddi birov qilganday chapga qaytib kelib momoning bir qulogʻini yulib oʻtdi . Bu sirdan momo qoʻrqib , qoni shoʻrgʻalab u yoq buyoqqa yugurib yoʻrgʻalab , qahri kelib jon talvasada qilichni urib yerga sindirmoqchi boʻldi. Qilich yana shiddat bilan aylanib ketib mastonning burnini kesib ketdi”.²⁶

Fozil shoir Yoʻldosh oʻgʻli dostonida Alpomishning sehrli qilichi haqidagi maʼlumot keltirilmaydi. Faqat Hakimbekka qilich oʻtmas , oʻtda kuymas , oʻq oʻtmasligi haqida maʼlumot beriladi.

²⁶Doston, aytuvchi Abdinazar Poyonov.(hali nashr etilmagan).

“ Alpomish enadan tug‘ilgan vaqtda Shohimardon piri borgan edi , Shohimardon piri etagiga solgan edi , otini Hakimbek qo‘yib , o‘ng eyniga besh panja urgan edi , Shohimardon pining tarbiyat qilganidan o‘tga solsa , kuymas edi , qilich solsa , o‘tmas edi , miltiq otgan bilan o‘qi botmas edi , ul sababli qalmoqlar bilmasdan , qanday baloga duchor bo‘lib qoldik , deb alanglashib qolgan edi . ”²⁷

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki , Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridan mustahkam joy olgan “ Alpomish “ dostonida yuqoridagi kabi o‘xshash va farqli jihatlar bir talaygina . Lekin har ikki baxshining ham kuylagan dostoni bir – birini takrorlamas darajada jozibali va go‘zal tasvirlarga boy . Har ikki dostonida ham vatan , vatanparvarlik , muhabbat va sadoqat , do‘stlik , ahillik singari ezgu g‘oyalar ilgari suriladi. Har ikkila doston mazmun jihatidan bitta doston bo‘lsa – da , har ikki dostonni o‘qiganimizda xuddi ikki xil dostonni o‘qiganday bo‘lamiz. Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining “Alpomish” dostoni o‘zining ajoyib tashbehlari , tasviriy ifodalari bilan Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘lining “Alpomish “ dostonidan qolishmaydi .

Hozirgacha Alpomish dostonining to‘qqizta vartianti mavjud edi. Abdinazar baxshining bu dostoni o‘ninchi yangi variant sifatida yaqinda Til va adabiyot institutida nashr qilinish arafasida turibdi.

²⁷Alpomish. Doston, aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. – Toshkent, “ Sharq “,2010. B 219

3-bob.

“ Terma ” so‘zi lug‘aviy jihatdan “ termoq ” ma‘nosini anglatga , istilohiy ma‘noda terib aytmoq , tanlab termoq ma‘nolarida bo‘lib , xalq qo‘shiqlari silsilasidagi mavzu mohiyatiga ko‘ra bir – birini to‘ldiradigan uchlik , to‘rtlik , beshlik va oltilikdan iborat bandlarni kompozitsion jihatdan bir tizimga yaxlitlashtirish asosidagi lirik yoxud xalq dostonlari ijrosi oldidan baxshining o‘z repertuariga poetik ekskurs qilishi asnosida badihatan tug‘ilgan biografik yoki avtobiografik , ayrim hollarda didaktik xarakterdagi epik qo‘shiq namunasi “ .²⁸

Biz bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismida ta’kidlaganimizdek, Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining 200 ga yaqin termasi bor. Bu termalar insonni komillikka chorlovchi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan. Yana mavzu jihatdan xilma – xilligi bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladi. Bu termalarning ichida pand – nasihat ruhida yozilganlari ham mavjud . Baxshi termalarining ko‘pchilik qismini O‘zbekiston va baxshi tug‘ilib o‘sgan Surxondaryoga bag‘ishlab yozilgan termalar tashkil qiladi. Bu esa Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining vataniga bo‘lgan cheksiz mehru muhabbatini ko‘rsatadi. Baxshining “ O‘zbekim ” , “ Vatanim ” , “ Turonim ” , “ Yurtim ” , “Yurtga tilak ” , “ O‘zbekning ” , “ Bo‘stonim ” , O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlab yozilgan “O‘zbekistonim” nomli termasi , “ Surxonning” , “ Xomkon ” kabi termalari vatanparvalik ruhida yozilgan .

Qadim Surxon vohasi deganda ko‘z oldimizda alplar ot surgan kengliklar namoyon bo‘ladi . Vohaning ekologik o‘ziga xosligining ifodasi bo‘lmish qarag‘ay daraxtlari surxon alplari kabi samoga doimo bo‘y cho‘zib turadi . Ayniqsa, jahonga mashhur bo‘lgan , Uvaysiy ham chistonlarida tilga olgan, anor , xurmo , bodomlarsiz Surxondaryoni tasavvur qila olmaymiz . Bunday zaminda voyaga yetgan ijodkor o‘z ijodida

²⁸Safarov Oxunjon . O‘zbek xalq og‘zaki ijodi . – Toshkent , “ Musiqa ” , 2010. –B . 109-110.

bunday go‘zal tabiat manzarasini tasvirlamasdan iloji yo‘q . Masalan ,
baxshining “ Surxonning ” nomli termasida ham tabiat tasvirini uchratamiz .

Yaxshilarning hamisha Alloh yori ,
Ming yoshni yashagan Sayrob chinori ,
Dong taratdi Surxondaryo anori ,
Tanga shifo havosi bor Surxonning.

Baxshining “ Surxonning ” nomli termasi M. Murodov va
A.Ergashevlarning “ Alpomishnoma ” kitobida ham keltirilgan .

“ Kechqurun polvon yuborgan mashina Muzraboddan Qora baxshini,
Qiziriqdan Abdinazar Poyonovni olib keldi. Hozirgi barhayot baxshilarning
ikki vakili goh terma, goh “ Alpomish”, goh “ Go‘ro‘g‘li” dan aytib
bahslashadilar .Manabaxshining bir lahzada to‘qigan va qog‘ozga tushirgan
termasi:

Asl joyi bo‘lar aytsam Sherobod,
Bir tomon Qiziriq , bir yon Muzrabod ,
Eli xalqi qo‘lidan cho‘llari obod ,
Yoronlar o‘tganda qiling ziyorat,
Imom Termiziysi bordir Surxonning.

Tinglab shayxlar uni pir deb tutibdi,
To‘rt yuzdan ortiqroq kitob bitibdi,
Xazinaga ixlos qo‘ygan botibdi
Bu tuproqda ulug‘ inson yotibdi,
Hakim Termiziysi bordir Surxonning.

Alpomishlar otin surgan bu makon,
Bobo shoir o‘ynab o‘sgan Beshqo‘ton,
U bo‘lgandir so‘zning mulkiga sulton,
Dostonlar tinglagan har qaysi inson,

Shunday baxshilari bordir Surxonning.

Cho‘bir o‘tolmaydi chopsa bedovdan,
Yigitlar qaytmagay kelganda yovdan,
Ko‘rgan ko‘z quvonar hu Bobotovdan,
Haydarqul hojisi o‘tgan Denovdan,
Shunday ulug‘lari bordir Surxonning.

Aytayin yaxshini men unutilmay,
Nechovlar kelgandir unga yetolmay,
Ming shayxi oldida bir so‘z aytolmay,
Temir yo‘lda poyezd qolgan tortolmay,
Haydarqul hojisi o‘tgan Surxonning.

Keng maydonda yurt orini olgani,
Daryodayin toshib hamda to‘lgani,
Saxiylikdan olqish, duo olgani,
Sho‘rchida yashaydi Omon polvoni,
Polvon mardlari bordir Surxonning.

Halollikman Omon polvon kurashgan,
To‘ylarda yeng turib maydonga tushgan,
Zarbidan raqiblar talpinib shoshgan,
Manman degan alplar bilan bellashgan,
Alpomishday shunqori bordir Surxonning.

Beknazar hojining asl farzandi,
Hurmat qilar o‘ynab o‘sgan el – yurti ,
O‘zar Boychiborday poygada oti ,

Rostdan Alpomishning shudir avlodi,
Hormas – tolmas Omoni bordir Surxonning.

Mard yigitda nomus bilan or bo'lsin,
Ko'rolmagan Ko'kaldoshday xor bo'lsin,
Omon polvon el baxtiga bor bo'lsin,
Alpomishning ruhi madadkor bo'lsin,
Saxovatli sardori bordir Surxonning.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining ijodidagi boshqa ijodkorlardan farq qiladigan bir tomoni, tabiat manzarasiga ham alohida e'tibor berish xususiyati hisoblanadi. Baxshi hamkor san'atkorlardan farqli ravishda, tabiat manzarasini tinglovchilar ko'z oldida aniq ifodalaydi. Ma'lumki, xalq dostonlari va termalari tinglovchida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, yurt mustaqilligi uchun muttasil kurash olib borish lozimligini uqtirishni ham nazarda tutadi. Ehtimol, baxshi shuning uchun ham o'z dostonlarida, ayniqsa, termalarida tabiatga murojaat etgandir. Tabiatning go'zalligini tasvirlash orqali tinglovchida O'zbekiston farzandi ekanligidan mag'rurlanish kayfiyatini shakllantiradi.

Tog'lar orasida turar tong yulduz,
Boshida shula sohib kechayu kunduz,
Aytaversam so'zim kelar izma – iz,
Oqtosh, Xo'jaykondan yetishtirgan tuz,
El – yurtga sovg'asi bordir Surxonning.

Biroz o'tmay baxshi o'zini yana tabiatga qaytgandek sezadi:

Ko'rganlarning kelar doim havasi,
Tog'laridan kelar kaklik navosi,
Ertak, doston aytar momo, bobosi,
Boysun tog'da bordir Omonxonasi,
Shifobaxsh suvlari bordir Surxonning.

Biz Ergash Jumanbulbul ijodi bilan tanishganimizda , “ Ravshan ” , “ Kuntug‘mish ” dostonlaridagi manzaralarni unutmaslikka harakat qilamiz . Ayniqsa , adirlardagi qo‘y – qo‘zilarning tarqab , atrofga fayz bag‘ishlashi hamisha yodimizda qoladi . Ehtimol , shuning uchun ham Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li aynan tabiat manzarasiga urg‘u berib , o‘zbek farzandida atrof – muhitni asrash , uning qadriga yetish haqidagi falsafiy mulohazalarni aks ettirishga jur‘at qilgandir . E’tibor bering , tog‘lar orasidan chiqib kelayotgan tong yulduzini , u yerlardagi kaklik navosini jonlantirgan holda Beshqo‘ton , Oqtosh , Xo‘jaykon , Omonxona , Boysun hududlarini madh etadi . Bu o‘rinda , ayniqsa , Omonxona hududini alohida ajratib ko‘rsatish kerak . Chunki , avvalo , Omonxonada , qolaversa , Boysunda shu paytgacha insonni holdan toydiradigan sariq kasalligining yo‘qligi Surxon tabiatining boyligi hisoblanadi . Shuning uchun ham baxshi “ shifobaxsh suvlari bordir Surxonning ” , deb kuylashni yaxshi ko‘radi .

Yoshligingdan tanib olgin haq yo‘lni,
Qing‘ir ishga sira urmagin qo‘lni ,
O‘rgatmagin yolg‘onga shirin tilni ,
Sinamasdan ushlamagin har gulni ,
Gul deb ushlaganing tikon bo‘lmasin,

misralari bilan boshlanuvchi “ Bo‘lmasin ” nomli termasi boshdan – oyoq pand – nasihat ruhida yozilgan .

Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining “ Vafoli yor hasrati ” deb ataluvchi termasida Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan urushning yurtimizga , xalqimizga ham yetkazgan talofatlari haqida gap ketadi . Termada o‘n besh yoshli uch kunlik kelinning beva bo‘lib qolgani haqida aytiladi . Terma baxshi tilidan emas , shu yosh kelinchak tilidan onasiga aytiladi .

Judolik tog‘idan mayli qulayin,

Ayriliq xanjarga bag‘rim tilayin,
Yayrab yashashni endi na qillayin,
Shunqorimni quzg‘un tepdi naylayin,
Uning ishqı bilan kuyib o‘layin,
Shunchalar peshonam sho‘ra enajon.
Uch kungina bir yostiqqa bosh qo‘ydim,
Gulday yashnab o‘zimga naqqosh qo‘ydim,
Na hayotning , na uning mehriga to‘ydim,
Yuragimni olib ketdi sug‘urib,
Qoldim sochim yozib, ko‘zdan yosh quyib,
Yorug‘ jahon men uchun tora enajon.

Termada yosh kelinchakning ichki ruhiy holati yorqin bo‘yoqlarda ifodalangan . Kelinchak o‘z yorini “ chin vafoli yorim “ , “ o‘tkir ko‘zli alp kelbatli norim ” , “ noyob gavharim ” kabi sifatlar bilan ataydi. Uning “ Chiroq bo‘b qolmadi o‘g‘il – qizlari ” , “ Uch kungina bir yostiqqa bosh qo‘ydim ” kabi so‘zlarini yoki yigitning onasi tilidan aytilgan “ Netay maqsadiga yetmadi , Ota bo‘lib o‘g‘il – qiz iyartmadi ” kabi qalbining qo‘ridan qaynab chiqayotgan g‘am – alamini , dard – hasratini o‘qiganimizda beixtiyor ko‘zimizga yosh keladi . Chunki har bir inson dunyoda o‘zidan keyin uni duo qilib turadigan oqil farzandlar qoldirish uchun ham bu dunyoga keladi . Termadagi yigit esa yigitlik burchini ado etish uchun avval harbiy xizmatga , so‘ngra Afg‘oniston urushiga safarbar qilinadi va o‘sha yoqda urush tugashiga ikki oy qolganda dushmanlar tomonidan otib o‘ldiriladi . O‘zidan iz qoldirishdek baxtdan benasib qoladi .

Evoh , keldi uning jonsiz jasadi ,

Uni deb qo‘ybedim o‘sma enajon .

Qanday ta’sirli misralar ! Shu ikki misrada bir olam ma’no mujassamlashgan . Yosh kelinchak turmush o‘rtog‘ining urushdan kelishini

orziqib kutadi . Nihoyat , turmush o'rtog'i keladigan kun yetib keldi . Kelinchak qaldirg'ochning qanotidek ingichka qoshlariga o'sma qo'yadi va xursand bo'lib ko'chaga qarasa , turmush o'rtog'ining jonsiz jasadi kelmoqda !

Baxshi birgina shu kelinchak obrazi misolida o'sha davrdagi o'nlab , yuzlab yosh qolib ketgan beva ayollarning , farzandidan ayrilgan onalarning ichki tuyg'ularini , kechinmalarini biz o'quvchilarga ochib beradi . Yosh avlodni urushga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalaydi va bunga erishadi ham .

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li “ Davrqul polvon ” dostonida ta'kidlaganidek , o'zbek kurashining jahon miqyosida tan olinishini xohlaydi . Davrqul polvonlar orzu qilgan kunlar keldi . Baxshi mustaqillikdan so'ng “ O'zbek kurashi ” nomli terma yozdi .

Ko'plarning aqli shoshib ,
Qiziqib ko'zi qamashib
Toshtemiru Abdullalar
Sherday maydonga tushib
Alpomishdayin kurashib
Oru nomusga talashib
Zo'rlik qilib kelayotir
Ne alplar bilan olishib .

O'zbekiston Respublikasining butun jahonga tanilib ulgurgan mashhur kurashchilari Abdulla Tangriyev va Toshtemir Muhammadiyevlar hisoblanadi . Ular o'zbek kurashini jahonga tanitgan haqiqiy o'zbek yigitlaridir . Ular Surxon vohasida o'sib – ulg'ayganlar . Ularning qonida bobomiz Alpomishning qoni jo'sh urmoqda , bir so'z bilan aytganda , ular ham Davrqul polvon singari Alpomish avlodlari sanaladi . Polvon bobolarimiz mustaqillikdan avval to'y , bayramlarda or – nomus uchun kurash tushgan bo'lsalar , hozirgi polvonlarimiz nafaqat to'y va

bayramlarda , balki o‘zbek kurashini jahonga tanitish uchun chet davlatlarga ham borib kurashib qaytmoqdalar . “ Alpomish ” dostonidan ham bizga ma’lumki , Oybarchin momomiz qo‘ygan shartlardan biri ham kurash edi . Bu kurashda Alpomish hammani mag‘lub qilib , g‘oliblikni qo‘lga kiritadi . Baxshi ham shunga ishora qilib “ Alpomishday kurashib ” demoqda .

Baxshining Yangi yilga bag‘ishlangan qutlov she’r – termasi ham mavjud .

Baxshilar so‘ylar til bilan
Sozini chertib qo‘l bilan
Qo‘shig‘in aytib dil bilan
Arining zavqi bol bilan
O‘rdakning shavqi ko‘l bilan
Har bir inson quvonsin
Izida qizu ul bilan
Barchangizni yurtdoshlar
Qutlayman Yangi yil bilan.

Bu termada keltirilgan qofiyadosh til , qo‘l , dil , bol , ko‘l , ul , yil so‘zlari bir – biriga shunday mos tushganki , o‘qigan odamni bezitib qo‘ymaydi . Bu so‘zlardan oldin kelgan so‘zlar ham bevosita Yangi yilga tegishli bo‘lgan so‘zlardir . Baxshi bu so‘zlarni shunchaki termaning qofiyalari bir- biriga mos kelishi uchun keltirmagan . Har bir misra bir – biriga uzviy bog‘langan . Yangi yilda baxshilarning tili bilan dilidagi qo‘shiqlarni aytishi , sozini , ya’ni do‘mbirasini qo‘li bilan chertishi , hamma oila davrasida xursandchilikda Yangi yilni kutib olishi baxshi tomonidan she’r shaklida ifodalangan . Agar shu so‘zlarni she’r shaklida emas , balki nasrda ifodalasak , insonga unchalik zavqu shavq bag‘ishlamaydi . Yuqorida aytgan qofiya haqidagi gaplarimizni Naim Karimovning “ XX asr adabiyoti manzaralari ” deb nomlangan kitobida

keltirilgan quyidagi soʻzlar ham tasdiqlaydi: “She’riyatni tashkil etuvchi, uni vujudga keltiruvchi barcha narsa - obrazlar ham, ritm ham, qofiya ham til yordamida maydonga keladi.”²⁹ Qofiyani marjonday terish esa baxshining mahoratiga bogʻliq.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” yilida Qiziriq tumani gʻalla rejasini birinchilardan boʻlib bajarganda Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻli bundan xursand boʻlib terma yaratdi.

Marraga yetishdi bugun Qiziriq,
Hormang, degan soʻzlar koʻngilga foriq,
Quchoq ochib toʻy boshlab mehmon kutar,
Mehnatdan xalqining yuzlari yorugʻ.

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani hududining uchdan ikki qismida gʻalla yetishtiriladi. Biz bilamizki, gʻalla – rizq-roʻzimiz, dasturxondagi aziz neʼmatimiz. Qiziriq xalqi azaldan mehnatda qotgan xalqdir. Bu yerda elim deb, yurtim deb yashaydigan insonlar talaygina. Toʻylari ham oʻzgacha oʻtadi. Ham mehnatsevar, ham mehmondoʻst xalqdir. Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻli ham shu yerda oʻsgani uchun Qiziriq xalqining gʻalabasidan xursand boʻlib shu termani yozadi. Abdinazar baxshining uyiga qaysi vaqt bormang, u kishini doimo dalada ishlayotganini koʻrasiz. Baxshi: “Agar gʻallamiz moʻl – koʻl boʻlsa, oʻzbek xalqining rizq – roʻzi hisoblanmish nonimiz ham tugamaydi.”, - degan edi bir suhbatimizda.

Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻlining “Navroʻz keldi” nomli termasi oʻynoqi vaznda yozilgan boʻlib, unda koʻtarinki ruh yatakchi hisoblanadi.

Boz keldi – ya, boz keldi
Bu yil juda soz keldi
Oʻrdak bilan gʻoz keldi

²⁹ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. IV fasl. Ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti namoyondalari. H. Olimjon. – Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2008. –B. 364.

Chiroy ochib olamga
Kelin bo'lib qiz keldi
O'lkamga Navro'z keldi
Dehqonga parvoz keldi.

Baxshi o'lkamizga bahor faslining kirib kelishini yosh kelinchakka o'xshatadi. Termaning keyingi bandlarida boychechak bo'y ko'rsatib, chor – atrofni chaman bog'ga aylantirgani, hammayoq yam – yashil rangga burkangani, qishdan zerikkan kishilarning ko'ngil – dillari xursandchilikka to'lgani haqida boradi.

“ Navro'z keldi ” termasida tabiat manzarasi juda chiroyli qilib tasvirlangan. Agar bu termanni qish fasli vaqtida o'qisangiz, bahor faslini qay darajada sog'inganingizni his qilassiz.

Qumri qushlar sayragan
Jami jonlar yayragan
Qiz – kelinlar o'ynagan
Baxshilari kuylagan
Sumalaklar qaynagan...

Bahor kelishi bilan atrofdan har xil qushlarning chug'ur –chug'ur qilib sayragan ovozi eshitamiz. Navro'z sayliga chiqqan qiz – kelinlar, bolalar bir tomonda volleybol o'ynashadi, bir tomonda arqon tortish o'ynashadi, lapar va termalaridan aytishuvlar aytishadi, yosh qizaloqlar va bolalar chuchmomalar, qizg'aldoq va boychechaklar terishadi. Bir tomonda polvonlar kurash tushishadi, bir tomonda futbol o'ynashadi, bir tomonda ko'pkari, bir tomonda esa baxshilarning bir – biridan o'zaman deb termalar va dostonlar aytayotganini ko'ramiz, bundan dilimizda xursandchilik paydo bo'ladi. Bu xursandchilik kelasi Navro'z sayligacha bizni tark etmaydi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda “ Navro'z ”

bayramini nishonlash ta'qiqlab qo'yilgan edi . Shularni eslasak , bugungi kunimizga shukronalar qilamiz . Bahor faslini sumalaksiz tasavvur qilish qiyin . Abdinazar baxshi yuqoridagi termasida shu tasvirlarni besh misrada jamlagan . Bu esa baxshi mahoratining natijasidir .

Kishnashadi qulun – toy
Suvga to'lib anhor – soy
Kulib boqar to'lin oy
Misli jannat manzil – joy
Yurtinga berib chiroy...

Bahor fasli yomg'irlar mavsumi hisoblanadi . Anhor va soylarimiz suvga to'ladi , yomg'ir ekinzorlarni yashil rangga kiritadi . Ko'pkarilarda otlarning kishnayotganini , adirlarda chopayotganini ko'rgan har bir kishining dili yayraydi . Bahor faslida Surxon vohasining qir va adirlari xuddi yashil gilamga qizil gullardan naqsh solingandek ko'rinadi . Adirlarga qora uylar o'rnatiladi . Baxshi shuning uchun ham “ Misli jannat manzil – joy ” deb ta'kidlaydi .

Baxshining avtobiografik “ Do'mbiram ” hamda “ Do'mbiram sen bilan ” nomli termalari o'ziga xos tarzda yozilgan . “ Do'mbiram ” termasining ba'zi o'rinlari hazil – mutoyibaga yo'g'rilgan:

Nag'ma navong chechan qildi tilimni,
Sehrlab tortasan ikki qo'limni,
Tog'larday zalvorli qilib belimni,
Seni ushlab kezdin necha elimni,
To'y – saylga boshlab doim yo'limni,
Nonushtada novvot bo'lgan do'mbiram.

Termada baxshi do'mbiraning ilhom manbayi , yaqin ko'makdosh ekanini , bayramlarda har doim u bilan yonma – yon yurishini , u orqali el ichida obro' – e'tibor qozonganligini alohida ta'kidlamoqda . Termada ushbu sozni

o'rik va pista yog'ochlaridan usta Husan yasab , baxshiga tortiq qilganligi ta'kid va e'tibor bilan kuylanadi:

Sho'rchi elda ko'rdim ulug' ustani,
Ul izlaydi qari o'rik , pistani ,
Oti Husan aytsam ko'pdir dostoni,
Sut yog'ochdan suyruk bo'lgan do'mbiram.
Usta Husan seni jo'ndi naqqoshlab,
Baxshilarga tortiq qildi bag'ishlab,
Chiroyingga to'ymaydi qo'lga ushlab,
Seni chertay mardlarimni olqishlab.

Ma'lumki , har bir baxshining mahorati u yaratgan asarlaridagi tashbehlarda namoyon bo'ladi . Tashbehlar esa baxshilikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi . Abdinazar baxshi Poyon o'g'lining ham go'zal tashbehlari mavjud . Masalan , “ O'zbekim ” termasida ham mavjud.

O'zbekim ko'targin ko'krak tog'ini,
Tiklab – O'zbekiston – Eram bog'ini...

Bu yerda vatanimiz O'zbekiston dunyoning eng go'zal bog'i hisoblanmish Eram bog'iga o'xshatilgan.

“ Yurtim ” nomli termasida tashbeh san'tini qo'llaganini ko'rishimiz mumkin :

Yuragimdan jo'shib sozimni chertay,
Jamoling charog'onmisli to'lin oy,
Qayda bo'lsam shoshib bag'ringga boray,
Aziz tuprog'ingni ko'zimga surtay,
Mehringga to'ymayman muqaddas yurtim.

Baxshi O'zbekistonning chiroyini to'lin oyga o'xshatmoqda.

Baxshi “ Dutorim ” termasida datorining to'yma – to'y yurishini tulporning chopishiga o'zshatadi va jonlantiradi :

Tulporday choparsan hayda – haylarga,
Yo‘l solasan qancha nag‘ma kuylarga,
Mehmon bo‘ldik saltanatli joylarga,
So‘zi shirin saxovatli boylarga...

Yana bir o‘rinda baxshi jonlantirish san’atidan foydalanadi :

Xalqqa quvonch berib gulday yashnaysan,
Xayrli , nurli , oydin yo‘lga boshlaysan,
Boychiborday Bobotovdan kishnaysan,
Go‘ro‘g‘li bo‘b qirq parini ushlaysan,
Har yurakka ne‘mat bo‘lgan do‘mbiram.

Baxshining “ Turonim ” nomli termasida talmeh san’atini uchratamiz:

Alilaring Alpomish shonu shavkatli,
Qizlaring suluvdir Barchin kelbatli,
Oldinda qoladi Boychibor otli,
Adolatparvarim , sohibqironim,
Ona O‘zbekiston buyuk turonim.

“ Vatanim ” va “ Turonim ” termalarida istiora san’ati qo‘llangan.

Ey azizlar, chertsak sozu sunbullar,
Kelib qo‘nsin jannatdagi bulbullar...

Ey yoronlar, tinglang aytar so‘zimni,
Maqtoving keltiray sozlab sozimni...

Baxshi bu termalarida bevosita “ Ey azizlar” , “ Ey yoronlar” deya atrofidagi kishilarga murojaat qilgan .

Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining termalari bilan tanishib chiqish jarayonida shunday xulosaga keldimki , baxshi termalari mavzu ko‘lami

kengligi bilan tinglovchilarni o'ziga jalb etadi . Baxshining “ Vafoli yor xasrati ” nomli termasi baxshi tilidan emas , balki bevosita asar qahramoni tilidan kuylanishi tinglovchilarga asar qahramonining ichki tuyg'ularini , dardu alamini , hissiyotlarini tez va oson tushunishiga yordam beradi . Asar qahramonining tuyg'ulariga tuyg'udosh , dardlariga dardkash , qayg'u g'amiga sherik bo'lib qolganini o'zi ham bilmay qoladi .

Baxshi termalarida ko'proq tabiat manzarasini tasvirlagan. Bunga sabab baxshi tug'ilib o'sgan Xomkon tog'i tabiatining go'zalligidir . Haqiqiy ijodkor bunday manzarali joylarga borganida yoki shunday joylarga borganida tabiat manzarasini , albatta , o'z asarlarida tasvirlaydi . Abdinazar baxshi ham shunday jo'shqin qalbli ijodkorlar sirasiga kiradi .

Baxshi o'z termalarida badiiy san'atning tashbeh , talmeh , istiora , jonlantirish kabi bir nechta turlarini qo'llagan.

Xulosalar

Umumozbek dostonchiligida alohida o'rin egallagan Surxondaryo dostonchiligi, xususan, Sherobod dostonchilik maktabi baxshi – shoirlari so'z san'ati va musiqaning ko'plab namunalari bizgacha asrab – avaylab yetkazib kelgan. Bu maktab Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlari, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining o'zbeklar yashaydigan ovul, qishloq va tumanlarida, repertuarida o'ziga xos dostonlarning mavjudligi, baxshichilik an'anasining yashovchanligi bilan ajralib turadi.

Sherobod dostonchilik maktabi vakili Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ustozlari Xo'shboq baxshi Mardonaqulov, baxshichilik san'ati sirlarini dostonlariga ilk kuylarini bastalab bergan, xalq orasida "Baxshilarning bastakori" deb nom olgan Sayqal chavandozdan, Chorshanbi baxshi Rahmatullayevlardan baxshichilik san'ati sirlarini mukammal ravishda o'rgangan. Ijodiy faoliyati davomida Shomurod baxshi, Qodir baxshi Rahimov kabi yetuk ijrochilar bilan tengma – teng bahslashgan olgan mahoratli baxshi hisoblanadi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li ustoz – shogirdchilik an'anasini davom ettirib, o'nga yaqin shogirdlarni yetishtirdi. Shogirdlari ham ustozidek elga ma'lum va mashhur baxshilar bo'ldilar.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li baxshichilik san'atida "Alpomish avlodlari" turkumiga kiruvchi "Davrqul polvon" dostoni, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Malla savdogar", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" kabi asarlari o'zbek dostonchiligi taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Abdinazar baxshi Poyon o'g'li "Davrqul polvon", "Tursun mergan va Ramazon chabag'on" kabi dostonlarni o'zi ijod etgan. Baxshi bu dostonlari bilan o'zbek an'anaviy dostonlarining safini kengaytirdi.

Baxshi ellikka yaqin termalarini va o'n beshdan ziyod do'mbira kuylarini o'zi ijod qilgan. Abdinazar baxshi do'mbira chertganda, uning

sadolari goho mungli bo‘lib nolish qiladi, goho esa baxtdan masrur bo‘lib, shod – xurramlikda olqish aytadi. U do‘mbirasining turli nag‘malari, kuy va ohanglari bilan tinglovchi yurak – bag‘riga singib boradi.

Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li repertuaridan mustahkam joy olgan “Alpomish” dostonida o‘xshash va farqli jihatlar bir talaygina. Lekin har ikki baxshining ham kuylagan dostoni bir – birini takrorlamas darajada jozibali va go‘zal tasvirlarga boy. Har ikki dostonda ham vatan, vatanparvarlik, muhabbat va sadoqat, do‘stlik, ahillik singari ezgu g‘oyalar ilgari suriladi. Har ikkila doston mazmun jihatidan bitta doston bo‘lsa – da, har ikki dostonni o‘qiganimizda xuddi ikki xil dostonni o‘qiganday bo‘lamiz. Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘lining “Alpomish” dostoni o‘zining ajoyib tashbehlari, tasviriy ifodalari bilan Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘lining “Alpomish” dostonidan qolishmaydi.

Sherobod dostonchilik maktabi vakili Abdinazar baxshi Poyon o‘g‘li hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning ijrosidagi dostonlar, u yetishtirgan shogirdlar Surxondaryo dostonchiligining davom etayotganligini ko‘rsatadi. So‘nggi paytda baxshichilik san‘ati so‘nib boryapti degan fikrlarning noo‘rin ekanligini isbotlaydi.

baxshi termalari mavzu ko‘lami kengligi bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb etadi. Baxshining “Vafoli yor xasrati” nomli termasi baxshi tilidan emas, balki bevosita asar qahramoni tilidan kuylanishi tinglovchilarga asar qahramonining ichki tuyg‘ularini, dardu alamini, hissiyotlarini tez va oson tushunishiga yordam beradi. Asar qahramonining tuyg‘ulariga tuyg‘udosh, dardlariga dardkash, qayg‘u g‘amiga sherik bo‘lib qolganini o‘zi ham bilmay qoladi.

Baxshi termalarida ko‘proq tabiat manzarasini tasvirlagan. Bunga sabab baxshi tug‘ilib o‘sgan Xomkon tog‘i tabiatining go‘zalligidir. Haqiqiy ijodkor bunday manzarali joylarga borganida yoki shunday joylarga borganida tabiat

manzarasini , albatta , o‘z asarlarida tasvirlaydi . Abdinazar baxshi ham shunday jo‘shqin qalbli ijodkorlar sirasiga kiradi .

Baxshi o‘z termalarida badiiy san’atning tashbeh , talmeh , istiora , jonlantirish kabi bir nechta turlarini qo‘llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 . Каримов И. А . Юксак маънавият – енгилмас куч . – Т.: Маънавият , 2008.
- 2 . Abdullayev R . Байсун Традиционная музыкальная культура. – Т.: 2006 .
- 3 .Afzalov M. O'zbek xalq baxshilari // Sharq yulduzi. – Т.: 1946.
- 4 . Jo'rayev M. O'zbek folklorshunosligi maktabi va uning taraqqiyoti // O'zbek tili va adabiyoti. 2004, 1 – son .
- 5 . Имомов К., Мирзаев Т. ва бошқалар. Узбек халк огзаки поетик ижоди. –Т .: Укитувчи, 1990.
- 6 . Хожирахмедов А . Мумтоз бадийят лугати. – Т .: Янги аср авлоди , 2008.
- 7 . Жуманазаров У .Узбек фолклори ва тарихий воқеалик. – Т.: Фан, 1991.
- 8 . Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari . –Т.: O'zbekiston , 2008.
- 9 . Murodov M. va Ergashev A. Alpomishnoma . – Т.: Mehnat . 1999.
- 10 . Murodov M.O'zbek baxshilari poetik maktablari // Adabiy meros. 1976, 4 – son.
- 11 . Mirzayev T. ,Safarov O. va boshqalar . O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi . –Т.: Aloqachi , 2008.
- 12 . Mirzayev T. Xalq shoirlarining repertuari . –Т.: Fan, 1979.
- 13 . Mirzayev T. “ Alpomish ” dostonining o'zbek variantlari . –Т.: Fan, 1968.
- 14 . Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti/ O'zbek folklorining epik janrlari. –Т.: Fan, 1981.
- 15 . Мадаев О. Алпомиш билан сухбат . – Т .: Маънавият, 1999.
- 16 . Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Т.: MUMTOZ SO'Z, 2010.
- 17 . Норкобилов Н . Жушкин даре . – Т.: Фан , 2005.
- 18 . Поенов А. Алпомиш , дoston . (hali nashr etilmagan).
- 19 . Поенов А. Давркул полвон . Doston. –Т.: Адолат, 2003.
- 20 . Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi . – Т.: Musiq, 2010.
- 21 . Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat . – Т.: Fan, 1969.
- 22 . Sarimsoqov B. “ Alpomish ” klassik eposi namunasi // O'zbek tili va adabiyoti . 1999, 4 – son .

- 23 . Eshonqulov J. .Sharqqa yuzlanish // Tafakkur , 2010. 1 – son.
- 24 .Ergashev A .Qashqadaryo – Surxondaryo dostonchiligi . - T.: Fan , 2008.
- 25 .Ergashev A. Baxshichilik zavol topadimi ? // - T.: Tafakkur, 2010.
- 26 .Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Alpomish ,doston. – T.: Sharq , 1998 , 2010.
- 27 . Узбек филологиясининг долзарб муаммолари. II том. – Т .: MUMTOZ SO‘Z, 2013.
- 28 .O‘bekiston adabiyoti va san’ati gazetasi . 2009 –yil 3 – iyul.